

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



## **MAKTABGACHA TA' LIM**

**Maktabgacha ta'limning dolzarb  
muammolari va zamonaviy yutuqlari**

**MODULI BO'YICHA  
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.**

- Tuzuvchilar:** **N.N. Djamilova** - pedagogika fanlari doktori, professor  
**D.R. Babayeva** - pedagogika fanlari nomzodi, professor  
**G.Sh. Sherbachayeva-(PhD)**, dotsent
- Taqrizchilar:** **M.N. Agzamova** - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.  
**M.M. Arslanova** - (PhD), dotsent.

**O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2023 yil 27-iyundagi  
11-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

## **MUNDARIJA:**

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>15</b>
<b>III. NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>23</b>
<b>IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>74</b>
<b>V. KEYSALAR BANKI.....</b>	<b>77</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>80</b>
<b>VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>89</b>

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”da oliy ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldaggi ‘Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarorida tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda

xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzlusiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzlusiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim tashkilotlarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish kabi pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarorida maktabgacha ta’lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har

tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko’lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta’minlash, sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta’minlash asosida takomillashtirib borish tizimdagi dolzarb masalalardan biri sifatida e’tirof etilgan.

Ushbu dasturda maktabgacha ta’lim metodika fanlarini xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili, maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar va maktabgacha ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash istiqbollari bayon etilgan.

### **Modulning maqsadi va vazifalari:**

**Modulning maqsadi:** Maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida maktabgacha ta’limning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlariga oid yangi bilimlar, ko‘nikmalar hamda malakalarini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish;
- Maktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlil qilish;
- Maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili;
- Maktabgacha ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash istiqbollari.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:**

“Maktabgacha ta’limning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari”

modulini o‘zlashtirish jarayonida:

**Tinglovchi:**

- maktabgacha ta’lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni;
- maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarini;
- maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish mexanizmlarini;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish yo‘llari;
- maktabgacha ta’limda kredit-modul tizimi mohiyati haqidagi **bilimlarga ega bo‘lishi**;
- Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimini tahlil qilish;
- maktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlardan foydalanish;
- Yevropa yagona ta’lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta’limini tahlil qilish;
- Modulli ta’limdan foydalanish;
- Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi davlatlarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo‘llash bo‘yicha tajribalarini ta’lim tizimiga tadbiq etish;
- maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlarni tahlil qila olish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid g‘oyalar ishlab chiqish **ko‘nikma va malakalarini egallashi**;
- pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollariga oid g‘oyalar, takliflar tayyorlash;

- zamonaviy yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga oid g‘oyalar ishlab chiqish **kompetensiyalarini egallashi** lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar:**

“Maktabgacha ta’limning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blisso‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi:**

“Maktabgacha ta’limning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Talabalar bilimini baholash” hamda “Pedagogikaning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni:**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini normativ-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg’ulot
1.	<b>Yangi O‘zbekiston muktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar</b>	2	2	
2.	<b>Muktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili</b>	6	2	4
3.	<b>Muktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili</b>	6	2	4
4.	<b>Muktabgacha ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash istiqbollari</b>	8	4	4
	<b>Jami:</b>	<b>22</b>	<b>10</b>	<b>12</b>

### NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

#### **1-MAVZU: YANGI O‘ZBEKISTON MAK TABGACHA TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR. (2 SOAT)**

Muktabgacha ta’lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar. Muktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari. Muktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish mexanizmlari. Muktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish yo‘llari.

#### **2-MAVZU: MAK TABGACHA TA’LIMDA XORIJIY TAJRIBALARING QIYOSIY TAHLILI. (2 SOAT)**

Xorijiy mamlakatlarda muktabgacha ta’lim tizimi. Muktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar. Yevropa yagona ta’lim muhiti (Bolonya jarayoni)da muktabgacha ta’lim. Modulli ta’lim mohiyati. Modulli ta’lim tamoyillari. Muktabgacha ta’limda kredit-modul tizimi mohiyati.

Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etish.

### **3-MAVZU: MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMI MUAMMOLARI GA OID ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. (2 SOAT)**

Maktabgacha ta'lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid tadqiqotlar. Soha ilmiy maktablari faoliyati. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.

### **4-MAVZU: MAK TABGACHA TA'LIM TIZIMI UCHUN PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. (4 SOAT)**

Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollari. Maktabgacha ta'lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.

#### **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

##### **1-AMALIY MASHG'ULOT**

### **MAVZU: MAK TABGACHA TA'LIMDA XORIJIY TAJRIBALARING QIYOSIY TAHLILI. (4 SOAT)**

Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimini tahlili. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar. Yevropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'limi tahlili. Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo'shma Shtatlari kabi davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga tadbiq etish.

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **MAVZU: MAK TABGACHA TA’LIM TIZIMI MUAMMOLARIGA OID ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. (4 SOAT)**

Maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid takliflar tayyorlash. Soha ilmiy maktablari faoliyatini tahlili. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlar.

## **3-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **MAVZU: MAK TABGACHA TA’LIM TIZIMI UCHUN PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI.**

**(4 soat)**

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollarini tahlili. Zamonaviy yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga oid ishlanmalar ishlab chiqish.

## **O‘QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha echimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi muktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagi “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar:**

17. Babayeva D.R. Bolalar nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat», 2020y.

18. Babayeva D.R. Bolalar nutq o‘stirish nazariyasi va texnologiyasi. o‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat », 2021y.

19. Babayeva D.R., N.N.Djamilova, D.F.Xalilova. Muktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2022y.

20. Babayeva D.R., D.F.Xalilova, D.F.Salimova. Bolalarni ijtimoiy moslashuvi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat», 2022y.

21. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T.: 2012y.

22. Babayeva D.R., Abdullayeva M., G.Jumasheva. Muktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari.-T.: “Ilim ziyo zakovat”. 2021y.

23. Babayeva D.R., Najmiddinova G.O. -T.: Дошкольная педагогика. “Ilim ziyo zakovat”. 2021y.

24. Kayumova N. Muktabgacha pedagogika.-T.: TDPU, 2013y.

25. Sodiqova Sh. Muktabgacha pedagogika.-T.: “Tafakkur bo‘stoni”. 2018y.

26. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M. Rahbrning innovatsion faoliyati. “Fan va texnologiyalar”. -T.: 2019y.
27. Djuraev R. X. Ta’lim menejmenti. -T.: “Voris”. 2006y.
28. Qurbanov Sh., E.Sayitxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish.-T.: ”Turon-Iqbol”, 2006y.
29. Djuraev R. X., Turg‘unov S.T.. Ta’lim menejmenti.-T.:“Voris-nashriyot”, 2006y.
30. Djamilova N.N. “Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” TDPU. 2017y.
31. Najmuddinova G. O. “Роль и значение развития связной речи у детей старшего дошкольного возраста”//Казахстан Республикаси Silkway International University Международная конференция: «Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании» 208-209 стр.
32. Najmuddinova G. O.«Психологические основы развития речи детей дошкольного возраста» Professor Oysha Xasanboyeva “Maktabgacha ta’lim fidoysi va oilashunosi”» Respublika ilmiy amaliy talabalar anjumani 2 mart 2020y.
33. Najmuddinova G. O. Средства и методы развития связной речи детей дошкольного возраста. O‘z. PFITI qoshidagi “Uzluksiz ta’lim” OAK e’tirofidagi ilmiy-uslubiy jurnal.-T.: 2020y. Maxsus son 61-63

#### **IV. Internet saytlari**

<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.


<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.


## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI**

### **1.“Nima uchun?” texnologiyasi**

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni echimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sababoqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.


**NIMA UCHUN?**  muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish jarayonida qo‘llash mumkin

“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi




#### **1-bosqich**

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish




#### **2-bosqich**

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.



## **Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi**




## **“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari**

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
  2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
  3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim

## 2.“SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni

mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



**Namuna:** Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan islohotlar kuchli tomonlari	Zamon talablariga mos kreativ pedagoglarni tayyorlash.
<b>W</b>	Pedagogik jarayodagi innovatsiyalar kuchsiz tomonlari	innovasiyalardan mohirona foydalana olishi.
<b>O</b>	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan islohotlar tavsifi (ichki)	mazmuni
<b>T</b>	To’siqlar (tashqi)	mohiyati.

**“Xulosalash”** Yangi O‘zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari.

### 3. (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama

etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to'ldiriladi va mavzu

#### **Namuna: Maktabgacha ta'limga xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili**

Maktabgacha ta'limga tarbiya tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning joriy etishning avzalliklari					
psixologik-pedagogik nazariyani egallash		o'z g'oyalalarini yagona konsepsiya qilib jamlash		yangilikni joriy qilish	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b> Maktabgacha ta'limga tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng					

#### 4.“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

#### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minati bilan tanishtirish	yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish; axborot tahlili; muammolarni aniqlash
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	individual va guruhda ishlash; muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	individual va guruhda ishlash; muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish; har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; muqobil echimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	yakka va guruhda ishlash; muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy

aspektlarini yoritish

**Keys.** Bo'lajak maktabgacha ta'lim o'qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligini tarkib toptirishda xatolik kelib chiqdi.


Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

## 5. “Venn diagrammasi” grafik organayzeri (go)

Ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish (sintezlash) ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

GO quyidagi sxema (grafik tasvir)ga ega bo'lib, topshiriq shu sxema asosida bajariladi:



Grafik organayzer ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi.

Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

## **6. “Qarama-qarshi munosabat” strategiyasi**

Strategiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo‘lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Ta’lim oluvchilar faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun ularning e’tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

Tayanch tushunchalar			
No	Muhim tushunchalar	No	Muhim bo‘lmagan tushunchalar
1.		1. 2.	

## **7. “Baliq skeleti” GO**

Ta’lim oluvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va echish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda ta’lim oluvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

## **8. “Munosabat” metodi**

Texnologiya ta’lim oluvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning

kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarga o‘zlarida ijobiyl fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

## **9. “Reja” metodi**

Metod ta’lim oluvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash ta’lim oluvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Metod ta’lim oluvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi. Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, ta’lim oluvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

## **10. “T-jadval” GO**

Grafik organayzer tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda grafik organayzer mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-MAVZU: YANGI O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

**Reja:**

1. Maktabgacha ta'lismizning joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar.
2. Maktabgacha ta'lismizning tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari.
3. Maktabgacha ta'lismizning sohasida me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish mexanizmlari.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish yo'llari.

**Tayanch iboralar:** maktabgacha ta'lismiz, rivojlantirish, ta'limgizdagi muammolar, an'anaviy metod, interfaol metodlar, innovasiyalar, takomillashtirish, mexanizm, intellektual, ta'lismizning sohasi.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lismiz bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Zero, maktabgacha ta'lismiz tashkilotida puxta tayyorlanib maktabga chiqqan bolajonlarning yutuqlarga erishish imkoniyati kengayadi. Maktabgacha ta'lismiz tashkilotiga oid davlat talablarida mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, jahon tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lismiz tizimida ma'nani mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olinadi. Ta'lismizning sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzARB sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lismizning tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda. Maktabgacha ta'lismizning sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lismiz bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lismiz tizimi boshqaruvini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lism vazirligi tashkil etildi.

Ma'lumki, Maktabgacha ta'lism vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni matabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar etarli darajada rivojlanmagan. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiylar, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lism dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni matab ta'limga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori misolida ko'rsak, mazkur konsepsiya maktabgacha ta'lism tizimini yana-da takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limga teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lism xizmatlarini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda, maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirishning maqsadli vazifalarini qamrab olgan bo'lib, jarayonning ustuvorliklari va bosqichlarini belgilab beradi. Konsepsiya tasdiqlangandan so'ng o'tgan bir yildan ortiq vaqt mobaynida maktabgacha ta'lism tizimida yangi Qonun qabul qilindi, yangi loyiham, islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lism uzluksiz ta'lism tizimining ajralmas qismiga aylangan. Ta'limga mazkur bo,,g,,inini rivojlantirish, shu asnoda bolaning intellektual shaxsini shakllantirish, ta'lism xizmatlarini yaratish orqali sifat darajasini oshirishga alohida e''tibor qaratilayotgani sohadagi izchil islohotlarning natijasi bo,,lmoqda. Ushbu maqolada yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lismni rivojlantirishga zamonaviy yondashuv xaqida so''z borgan

Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lism sohasini rivojlantirish borasidagi

strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat’i nazar, bog‘cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta’lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun sharoitlarni yaratishdan iborat...». Ushbu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi[2].

Maktabgacha ta’lim sohasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tariyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, taMil<sup>^</sup> shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillaraa turli omil<sup>^</sup> ta'sirida maktabgacha ta’lim tizimida bolalami maktab ta’limiga tayyoriash borasida rivojlanish o'miga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalami maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasan-ufidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalaming maktabgacha ta’lim bilan qashrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllaming ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlaming tajribasi etarrii darajada o'r ganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadriaming aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta’lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omil<sup>^</sup> sabab bo'ldi. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog‘cha yoshidagi bolalami maktabgacha ta’lim tashkilotlariga to‘liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi. DaAaqiqat, o'tgan qisqa vaqt mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbiriari to'g'risida»gi, «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqamvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vaziriigi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmon va qarariari, shuningdek, "Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yilla<sup>^</sup>a mo'ljallangan Dasturi hamda

respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan isbiilar amalga oshirildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir Mazkrn- tizimda innovatsiyalami, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kompyuterlar bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'limda tartiya samaradoriigini oshirish yuzasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yana-da takomillashtirish mavzusida tuman (shaha<sup>^</sup> Maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan o'quv-seminarlar, tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadbirlarda "OPEN EMIS" tizimidagi xato kamchiliklami tuzatish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev qaroriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlangan va u quyidagilarni nazarda tutadi:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatlari maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalami, ilg<sup>^</sup> pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»;

4- 2019-2024 yillaráa O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko^satkichlari;

4- 2025-2030 yillaráa O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko'reatkichlari tasdiqlangan.

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar (Namangan, Jizzax, Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari misolida) samaradorligi tahlil qilinganda quyidagilar aniqladi:

- 3-6 yoshdagи bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha eng samarali natijalarga Jizzax viloyatida (15 foizga o'sish) erishildi;

- 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrab olish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinayotgan hududlar orasidan Samarqand viloyatida muvaffaqiyatliroq amalga oshirildi;

- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarini rivojlantirish borasida Toshkent viloyatida eng muvaffaqiyatli natijalarga erishildi, ya'ni so'nggi 5 yil davomida 167 ta yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etildi.

«O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiysi»ning qabul qilinishi sohadagi islohotlarni amalga oshirishda huquqiy asosni yaratdi. Maktabgacha ta'limni rivojlantirishda

hududlar, shahar va qishloqlar o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatning sohaga davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy kapitalni jalg etishni rag‘batlantirish<sup>[3]</sup> siyosati ham imkoniyatlarni kengaytirmoqda.

### ***Maktabgacha ta’limga talab ortmoqda***

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni kengaytirish nafaqat yangi tashkilotlarni qurish va eskilarini ta’mirlash hisobiga (qo‘sishimcha bola o‘rinlarini joriy etish) balki, ota-onalar orasida maktabgacha ta’limning ahamiyati haqida faol tushuntirish va tashviqot ishlari olib borish, kam ta’minlangan oilalarning farzandlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash hisobiga ham erishildi. Buning natijasida 2015 yilda yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘la foydalanimay qolgan o‘rinlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa (jami respublika MTMlaridagi bola o‘rinlari 713060 dona bo‘lib, ularga qatnovchi bolalar soni 620769 nafar), 2020 yilga kelib maktabgacha ta’lim xizmatiga bo‘lgan talab soni mavjud o‘rinlar sonidan oshdi (mos ravishda jami 1155731 o‘ringa 1196421 nafar).

### ***Oilaviy MTM muhim omil sifatida***

Oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonining oshishi respublikaning chekka hududlari hamda kam ta’minlangan oilalardagi bolalarni ham ta’limning ushbu bosqichiga jalg qilishini ta’minladi. Bu o‘z navbatida, viloyatlar, shahar va qishloqlar o‘rtasidagi nomutanosiblik darajasini kamaytirishga salmoqli hissa qo‘shti. Beshtahududdan (Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlari) oilaviy MTMlarning 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirishga qo‘shtan hissasi Jizzax viloyatida (15 %) eng ko‘proq bo‘lsa, eng kam ulush Toshkent viloyatida (4,3%) kuzatilgan. Ta’kidlash joizki, Toshkent viloyatida qamrov darajasi 5 yil avval ham o‘rtacha respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgan.

2015 yilda Qashqadaryo viloyatida bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish, nafaqat tanlangan hududlar orasida, balki butun respublikada bo‘yicha eng past (9,9%) darajada edi. 2020 yilga kelib, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich – 3,4, Jizzaxda – 4, Namanganda – 3, Samarqandda – 3,1 va Toshkent viloyatlarida – 1,6 barobar oshdi. Respublikaning 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan jami bolalarning 43,9 foizi ushbu hududlarda yashaydi.

### ***Mobil (ko‘chma) bog‘chalarni joriy qilish***

Maqsadli parametrlarga erishish uchun maktabgacha ta’limning an’anaviy shakllarini rivojlantirish bilan bir qatorda, qisqa muddatli, mobil maktabgacha ta’lim guruhlari va boshqa shu kabi uning muqobil shakllarni keng rivojlantirish ham ko‘zda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra[5], yangi mobil “Aqlvoy” guruhlari 2021 yilning yanvar oyida faoliyat yurita boshlagan.

Ushbu guruhlar bolalarni maktabgacha ta’lim bilan eng kam qamrab olingen, bolalar bog‘chalari mavjud bo‘lmagan chekka hududlarda ochilishi hamda bolalarning ularga qatnashi tekin bo‘lishi yuritishi ko‘zda tutilgan. Mobil guruhlarning tarbiyachilari qo‘srimcha malaka oshirish kurslarida, jumladan, birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha ham o‘qitiladi.

### ***Maktabga tayyorgarlik***

Xorijiy olimlar tomonidan inson kapitaliga qilingan investisiyalarning kelajakda eng ko‘p naf keltiradigani shaxs shakllanishing dastlabki, ya’ni maktabgacha ta’lim bosqichida qilingan investisiyalar ekani isbotlagan.

Qayd etish joizki, ijtimoiy-iqtisodiy holati pastroq bo‘lgan oila farzandlariga maktabgacha ta’lim yoshida qilingan investisiyalar, o‘ziga to‘q oila farzandlariga qilingan investisiyalarga nisbatan ko‘proq foyda keltiradi. Sababi maktabgacha ta’lim bolaning nafaqat ijtimoiylashishiga ko‘maklashadi, balki shaxsning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga asos yaratadi va maktabga tayyorlaydi. Aynan shu bois maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasida 6

yoshli bolalarni 2021-yil yakuniga kelib, maktabga tayyorlash tizimi bilan to‘liq qamrab olish maqsadli paramert qillib belgilangan.

2015 yildan 2020 yilgacha tahlil qilinayotgan hududlardan 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik tizimi bilan qamrab olish bo‘yicha Jizzax (qamrov 67%), Samarqand (61,4%) va Namangan (44,6%) viloyatlarida eng yaxshi natijalarga erishilgan. Qashqadaryo (22%) va Toshkent (15,9%) viloyatlarida bolalarining 78% va 84% maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrab olinmagan.

Bugungi kunda ta’lim sohasida turli xususiyatdagi, yo‘nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko‘p innovasiyalar mavjud, katta yoki kichik ko‘lamli davlat islohotlari o‘tkaziladi, ta’limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida – bola o‘z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o‘zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola o‘z ehtiyojlari, qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo‘lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o‘zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi; tashkilot ota-onalarning o‘z bolalari uchun ko‘zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta’limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltiradi.

Hozirgi vaqtida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan ilg‘or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagog zarur bo‘ladi. U pedagogik jarayonning ijodkori bo‘lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo‘lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim.

Innovatsion salohiyatning qismi bo‘lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorlik, muammo bilan tanishish, uni hal etishning mavjud yo‘llarini tahlil qilish, yo‘lini tanlash, qaror qabul qilish oqibatlarini qabul qilish bilan belgilanadi.

Innovatsion ta’lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an’anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi.

Birinchidan, faoliyat mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish faoliyati ancha murakkablashadi, chunki uning texnologik asosi tez rivojlanadi. U pedagogning maxsus malakalari, ish usullari rivojlantirilishini talab etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyat sifatiga va uning mahsuliga qo’shimcha talablarni qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonning o‘ziga xosligi shuki, pedagog markaziy o‘rin tutgan an’anaviy ta’limdan farqli ravishda, bu yerda asosiy diqqat bolaga – uning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi.

Tarbiyachining muhim funksiyasi bolani o‘z faoliyatida qo’llab-quvvatlash, uning olamdagi muvaffaqiyatli ilgarilama harakatiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma’lumotni o‘zlashtirishga yordam berish hisoblanadi.

K. Rodjers, A.B. Orlov va S.Ya. Romashina jahon ta’limiy hamjamiyatida shu sababli yangi atama – fasilitator – o‘qishga yordam beruvchi, osonlashtiruvchi, ko‘maklashuvchi shaxs paydo bo‘lib, ishlatilayotganligini qayd etganlar.

Uchinchidan, bilish materialini taqdim etish va tajribani berish yo’llari pedagog va bolalarning intensiv muloqotini ko‘zda tutadi, pedagogning barcha bolalar bilan umumlashgan aloqasi ustuvor bo‘lgan, lekin tarbiyachining alohida bolalar bilan o‘zaro munosabati ancha kam bo‘lgan an’anaviy ta’lim turiga nisbatan zamonaviy ta’limda ushbu ta’lim sub’ektlari o‘rtasida ancha faolroq va qiziqarli o‘zaro munosabatlar bo‘lishini talab qiladi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruriy shartlari pedagogning salohiyati va harakatlari, uning yangilikni sezishi, ochiqligi va fasilitatsiyasi bo‘ladi.

Pedagog va bolaning ta’lim jarayonida tutgan o‘rnining o‘zgarishi o‘zaro munosabatlar, eng avvalo pedagoglar o‘zaro munosabatlari – integratsiyasi va o‘zaro moslashuvi tizimini qayta qurish, shuningdek «pedagog – bola –ota-

onasi» uchburchagida o‘zaro munosabatlarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu, bir tomondan, maktabgacha ta’lim tashkilotida innovatsion jarayonning zaruriy sharti, boshqa tomondan –uning natijasi va muvaffaqiyatining ko‘rsatkichi bo‘ladi.

Boshlang‘ich darajada innovasiyalar yoki ayrim kursning, yoki kurslar blokining (masalan, ekologik yoki gumanitar) yangi mazmunini yaratishga; yoki ta’lim jarayonining tuzilmasini yaratishnig yangi usullarini ishlab chiqishga; yoki ta’limning yangi texnologiyalari, yangi shakllari va usullarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Istalgan darajadagi innovasiyani nazariy asoslangan, maqsadga qaratilgan va amaliyatga yo‘naltirilgan yangilik deb qarash mumkin. Innovasiya har qanday darajasida 4 bosqich davomida rivojlanadi:

- nazariy, ya’ni innovatsiyalarni pasixologik-pedagogik tahlil asosida asoslab berish; innovatsion jarayon qanday rivojlanishi, hamda uning salbiy va ijobjiy oqibatlari qanday bo‘lishini prognoz qilish;
- tashqiliy-siyosiy;
- tahliliy (olingan natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish);
- joriy etish.

Bosqichlardan har biri o‘z vazifalari va mazmuniga ega. Eng murakkab bosqich birinchi bosqichdir, chunki pedagogik fikr yuritish psixologik-pedagogik nazariyani egallash, o‘z g‘oyalarini yagona konsepsiya qilib jamlash, innovatsiyalar zarurligi yoki muqarrarligini asoslash, yangilikni joriy qilishga ko‘maklashuvchi omillarni ajratib ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Ushbu bosqich rejorashtirilgan yangilikning axborot ta’midotini ham ko‘zda tutadi. Birinchi bosqichda puxta ishslash innovatsiyalarni pedagogik jarayonga joriy qilish bosqichida muvaffaqiyatga olib keladi.

Ikkinci bosqich – yangilikni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi yangi tuzilmalarni yaratishdir. Bu tuzilmalar mobil, mustaqil va erkin bo‘lishi lozim.

Uchinchi bosqichda innovatsion jarayon qaysi darajada amalga oshirilayotganini anglab yetish; umuman ta’lim tashkilotining ahvolini (yoki

muayyan fanni o‘qitishning ahvolini) yangilikni joriy qilish natijasida erishilishi ko‘zda tutilgan prognoz holatiga solishtirish lozim. Agar muvofiqlikka erishilmasa, nega? Degan savolga javob topish lozim.

Joriy qilish bosqichida muvaffaqiyat ikkita omilga bog‘liq: yangilik amalgam oshayotgan o‘quv yurtining (yoki ta’lim muhitining) moddiy-texnik bazasi, va pedagogik xodimlar va rahbarlarning malakasi, ularning umuman yangiliklarga munosabati, ularning ijodiy faolligi. Har qanday innovatsiyalar xodimlardan yuksak hissiy va aqliy kuch sarf etilishini talab qiladi, demakki, bu mehnatga shunga mos haq to‘lanishi lozim. Ushbu muammolar tufayli (o‘qituvchilar korpusining kasbiy mahorati; moddiy-texnik bazasi va mehnatning ijtimoiy baholanishi) ta’limdagи innovatsiyalar amalga oshguncha uzoq va qiyin yo‘l o‘tadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha ta’lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishda qanday muammolar mavjud?
2. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari tushuntirib bering?
3. Maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish mexanizmlari yaratishda nimalarga e’tibor qaratiladi?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun qanday sharoitlar yaratilish kerak?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 29 dekabr 2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-5198 «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 30 sentyabr 2017 yil.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-3651 «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 5- aprel 2018 yil.

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-3955 «Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 30 sentyabr 2018 yil.

5.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.

– Toshkent: Fan, 2006.

6.Chicherina Ya., Nurkeldieva D., Bondareva Ye. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar, 2013y.

## **2-MAVZU: MAK TABGACHA TA’LIMDA XORIJIY**

### **TAJRIBALAR NING QIYOSIY TAHLILI.**

**Reja:**

- 1.Xorijiy mamlakatlarda maktabgacha ta’lim tizimi.
2. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.
- 3.Yevropa yagona ta’lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta’lim.
- 4.Modulli ta’lim mohiyati.
5. Rivojlangan Yevropa davlatlarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo‘llash bo‘yicha tajribalarini ta’lim tizimiga tadbiq etish.

**Tayanch iboralar:** maktabgacha ta’lim tizimi, zamonaviy yondashuv, ta’lim mohiyati, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, jarayonlarini tashkil etish.

Respublikamizda ta’lim tizimi doimo davlatning e’tiborida bulmosda. Utgan davr mobaynida sotlom va sar tomonlama rivojlangan avlodning shakllanishini ta’min-lashga saratilgan samarali maktabgacha ta’lim tizimini tashkil silish buyicha kompleks tashkiliy-susutsiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. %ozirgi kunda bu sosa chusur islos silinish solatida.

Uzbekistan Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning aso-siy yakunlari va 2017 yilga muljallangan ikti-sodiy dasturning eng muxim ustuvor yunalish-lariga baFishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida ta-

kidlaganidek, «Avvalgi uchrashuvlarda ta’lim va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta’limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish soxasidagi ish-lar axvoli tankidiy taxlil kilib berilgan edi. Bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish yoshlarimiz, jamiyatimiz va mamlakatimiz-ning kelajagi uchun strategik axamiyatga ega eka-ni sababli ushbu soxadagi ishlar shaxsan Bosh vazirga yuklatilgan. Sizning e’tiboringizni kuyidagi vazifalarni amalga oshirishga karamaman. Birinchi vazifa - maktabgacha ta’lim soxasida». Mazkur vazifani bajarish borasida joriy yil mobaynida maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi buFini sifatida takomillashtirish buyicha davlatimiz raxbari tomonidan kator muxim xujjalalar kabul kilindi. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustaxkam-lash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog’ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbik etish har tomonlama intellektual, axlokiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sha-roitlar yaratish maksadida Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug’risida»gi PK.-2707-son karori kabul ki-lindi. Shu karor bilan tasdiklangan «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish buyicha 2017-2021 yillarga muljallangan das-tur»ning asosiy maksadli vazifalari va yunalishlari katorida ilFor xorijiy tajri-bani xisobga olgan xolda bolalarni xar tomonlama intellektual, axlokiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Shuningdek, Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tuFrisida»gi PK-3261-son karorida mavjud tizimli kamchiliklar, maktabgacha ta’lim soxasida davlat siyosatini tulik amalga oshirishga tuskinlik kilayotgan sabablar kursatilgan,xususan:

-birinchidan, maktabgacha ta'limni boshka-rishning amaldagi xolati tizimli muammolar-ni uz vaktida aniklash va bartaraf etish, mazkur soxada, shu jumladan, nodavlat sektorda za-monaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chikish va joriy etish imkonini bermayapti;

-ikkinchidan, maktabgacha ta'lim soxasiga in-vestitsiyalarni jalb kilishga, shu jumladan, ijtimoiy-xammabop maktabgacha ta'lim muas-sasalarini tashkil etish, ularni moddiy-tex-nika jixatidan kayta jixozlash va ilFor peda-gogik texnologiyalarni kullashga karatilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy kilinmagan;

-uchinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari infratuzilmasi va moddiy-texnika bazasining amaldagi xolati bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan tulik kamrab olishni ta'-minlashga imkon bermayapti, mamlakatda axoli

-sonining usishi ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xaddan tashkari tulib ketishiga olib kelmokda;

-turtinchidan, milliy madaniy-tarixiy kad-riyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob ukishga kizikishni uYFotuvchi ukuv-metodik, didaktik (shu jumladan, uyinlar va uyinchoklar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash xamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliya-tiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi;

-beshinchidan, kadrlarni tayyorlash va kayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'-lim soxasini bolalarni tarbiyalash va xar to-monlama rivojlantirish masalalarini professional darajada xal etishga kodir yukori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay ol-maydi;

-oltinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini moddiy raFbatlantirish tizi-mining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb kilish imkonini bermayapti;

-yettinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat kursatish buyicha xududiy soFlikni saklash organlari ishini tashkil etishdagi

kamchiliklar bolalarining xayoti va soFliFini ximoya kilish, shu jumladan, soFlom ovkatlanishini ta'minlash buyicha pro-filaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelmokda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoklarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari urtasida soFlom rakobat muxitini shakl-lantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xu-susiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, Uzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini sa-marali tashkil etishni ta'minlash maksadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Uzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish tug'risida» PK,-3305-son karori kabul kilindi. Mazkur karorga berilgan sharxda ta'-kidlanganidek: «... bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tubdan yaxshi-lash, maktabgacha yoshdagi bolalar kamrovini oshirish, ilFor xorijiy tajribani urgangan xolda, xar jixatdan zamonaviy tizim yaratish masalasi dolzarbligicha kolmokda». Mazkur qarorda maktabgacha ta'lim tizimini islox qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko'lamli tadbirlarni amalgaloshish ko'zda tutilgan, shu jumladan, pedagog va raxbar xodimlarning malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'lim muas-sasalarini yukori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash belgilangan.

Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshkaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tuFrisida» PF-5198-son far-monida ta'kidlagandek, «Maktabgacha ta'lim soxasi uzlucksiz ta'lim tizimining birlamchi buFini xisoblanib, u xar tomonlama soFlom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda Foyat muxim axamiyat kasb etadi. Mustakillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat

siyosatining asosiy ustuvor yunalishlari darajasiga kutarildi. Birok utkazilgan taxlillar maktabgacha ta’lim soxasida olib bo-rilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini kursatmokda». Uzluksiz ta’lim tizimining muxim buFini bulgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada tako-millashtirish maksadida mazkur karorga muvo-fik, Uzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, KorakalpoFiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Toshkent shaxar maktabgacha ta’lim bosh boshkarmasi, viloyatlar maktabgacha ta’lim boshkarmalari xamda ular-ning tuman (shaxar)lardagi bulimlarini tashkil etish vazifasi belgilandi. Uzbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, uning xududiy bulinmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yunalishlari katorida ilFor xo-rijiy tajribani xisobga olgan xolda maktabgacha yoshdagি bolalarni xar tomonlama intellektual, axlokiy, estetik va jismoniy rivoj-lantirish uchun shart-sharoitlar yaratish belgilangan. .

Amerika, Anglia, Fransiya, Yaponiya, olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o’tkazilgan no’ananaviy ta’lim shakllari ya’ni innavasion texnalogiyadan foydalanish, shuningdek mavzuga oid Respublika pedagog olimlarining pedagogik qarashlari va ilg‘or g‘oyalardan foydalanish imkonini beradi. Kom’pyuter darsi sistemasini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy qilish noan’anaviy ta’lim usullaridan hisoblanadi. Bu usulning dolzarbliyi, katta e’tibor va imkoniyatga ega ekanligi bilan asoslanadi. Komp’yuterga yozilgan dars dasturining afzallik tomoni shundan iboratki, mavzu yuzasidagi murakkab jarayonlarni haqiqatga yaqin dinamik modeli bilan yaqqol tanishadi. Boshqa xech qanday o‘qitish usulida talaba bunday imkoniyatga ega bo‘lmaydi.

O‘quv jarayonining axborotli hamda texnik vositalar yordamida uyushtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa noan’anaviy ta’lim shakllarining asosiy tamoyillari va ularni mohiyatini bilish ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Noan’anaviy ta’limning yaxlitlik tamoyili o‘zida ikki jihatni aks ettiradi.

- Birinchisi;
  - ta’lim

- tarbiya bilan shaxs kamolotini mushtarakligi,
- ikkinchisi;
- noana'naviy ta'lim usullarining muayyan tizimga ega ekanligidan kelib chiqib ta'lim berishni nazarda tutadi.

Talim sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, taxlil qilish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qitishning noan'anaviy shakllaridan foydalanish va ilg'or pedagogik texnlogiyalar asosida darslarni tashkil etish dolzarb muammolardan sanaladi. Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzlusiz ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Respublikamizda uzlusiz ta'lim tizimi ijtimoiy sohalar hamda iqtisodiyot tarmoqlarini modernizasiyalash sharoitida muhim ijtimoiy institatlardan biri sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalarni bajarmoqda. Ularning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlash uchun o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash, kasbiy yetuklik va yuksak ma'naviyatni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Pedagogika fani bilimlar sohasi va ijtimoiy amaliyot sohasi kabi jahon rivojlanish umumiy tendensiyalari va qonuniyatlariga binoan rivojlanadi. Shuning uchun kasbiy-pedagogik ta'lim chet el tajribalarini o'rganish uni ilmiy tushunish ilg'or g'oyalardan milliy ta'lim amaliyotida foydalanish ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Ta'lim sifatini boshqarishga ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish xorijda XX asrning 20-yillarida, mamlakatimizda esa 50-yillarida boshlangan edi. Bizda bu ish uzoq vaqt mobaynida jahonda amalga oshirilayotgan ishlardan ajralgan holda olib borildi. Agar chet elda ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari avval boshdanoq ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, mamlakatimizda

asosan pedagogika nazariyasi qoidalariga tayangan edi. Ammo 80-yillarning o‘rtalaridan boshlab bu uzilish jadallik bilan bartaraf etila boshladi. Ijtimoiy boshqarish fanini rivojlantirish O‘zbekistonda va xorijda ta’limni boshqarish muammolari yechimini nazariy jihatdan idrok etishga va izlashga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Ijtimoiy tashkilotlarni boshqarishning umumiyligi g‘oyalari ta’lim sohasida boshqarish muammolarini ilmiy ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ta’limni boshqarish qonuniyatlarini boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob’ektiv ravishda mavjud bo‘lgan, takrorlanuvchi o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiy va xususiyga bo‘linadi. Umumiy qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo‘lsa, xususiyatlari ayrim ta’lim tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog‘liq.

### **O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida Koreya modeli aks etishi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Koreya Respublikasiga 2017 yil 22-25 noyabr kunlari davlat tashrifi doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan 20 ga yaqin uchrashuvlar o‘tkazilib, tajriba almashinuvi, O‘zbekistonda eksperimental tarzda bolalar bog‘chalarini ochish, birgalikda kadrlar tayyorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Safar doirasida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan Koreyaning qator maktabgacha ta’lim va boshqa turdagi muassasalariga tashriflar uyushtirildi va ularning faoliyati o‘rganildi, jumladan bog‘chalarning o‘ziga xos jihatlari, qo‘llanilayotgan ta’lim berish uslublari, moliyalashtirish va to‘lov tizimlari, pedagogik xodimlarning malaka darajasi va xizmat sharoitlari, oziq-ovqat va moddiy-texnik ta’minot hamda sohalariga tegishli dasturlar va uslublar atroficha o‘rganildi.

Pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo‘qligi, davlat bog‘chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o‘zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto

kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o‘yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o‘zini tutish va shaxsiy gigiena ko‘nikmalarini tarbiya qilish kabi alohida jihatlar Koreya maktabgacha ta’lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat, davlat jamiyatning eng himoyalanmagan qatlamlari, kam ta’minlangan oilalar va nogiron bolalarga, birinchi navbatda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi va bog‘chalarga qabul davomida ularga ustuvorlik prinsipini qo‘llaydi va shu sababli ham, Koreyada inklyuziv ta’lim prinsiplari tahsinga sazovordir.

Koreyaning ta’lim tizimiga kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan va tasarrufida maktabgacha ta’lim muassalari bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Sanmyong Universiteti, (Sangmyung University) hamda Chung-Ang Universiteti (Chung-Ang University) bilan Hadli kelishuvlar imzolandi, shuningdek Chonnam Milliy Universiteti (Chonnam National University) bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Kelishuvlar va Memorandum doirasida quyidagi sohalardagi hamkorlik nazarda tutilgan: talabalar, ilmiy-pedagogik va boshqaruv mutaxassislari o‘rtasida tajriba almashinuvlari, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishga qaratilgan choralar, jumladan eng yangi dasturlar va uslublarni joriy qilish, hamkorlikda tadqiqotlar, konferensiyalar, ko‘rgazma va seminarlarni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha maxsus qo‘shma magistrlik va doktorlik dasturlarini tashkil etish, shuningdek O‘zbekistonda eksperimental ravishda Koreya tizimiga asoslangan eksperimental bog‘chalarni tashkil etish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta’lim vazirligi delegatsiyasining Koreya Respublikasiga tashrifi davomida bolalarning erta rivojlanishi va maktabgacha ta’lim tizimi sohasiga ixtisoslashgan nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan uchrashuvlar ham o‘tkazildi. Jumladan, 2017 yilning 23 noyabr kuni Koreya bolalar parvarishi va maktabgacha ta’lim masalalarini o‘rganish Institut (KICCE) bilan Hadli kelishuv imzolandi. Kelishuv doirasida Maktabgacha ta’lim vazirligi va KICCE

hamkorligida qo'shma tadqiqotlar o'tkaziladi, pedagogik kadrlarni tayyorlash orqali tajriba almashinuviga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi, seminarlar va konferensiyalar tashkil etiladi. Shu bilan bir qatorda hamkorlik asosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalarining ishlab chiqilishi, ta'lim dasturlari va standartlarining qayta ko'rib chiqilishi, ta'lim statistikasini joriy qilish nazarda tutilgan. Seul bolalarni erta rivojlantirishga ko'maklashish Instituti (Seoul Early Childhood Education Promotion Institute) bilan 2017 yilning 22 noyabr kuni o'tkazilgan uchrashuv chog'ida qo'shma tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba almashinuvi, ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyatga tatbiq qilish imkoniyatini beruvchi hamkorlikdagi ilmiy-amaliy tadqiqot muassasalarini tashkil etish, o'quv-uslubiy materiallarni tayyorlash borasida kelgusida hamkorlik bitimlarini imzolash kelishib olindi.

Yana bir samarali uchrashuv – Maktabgacha ta'lim vazirligining eng muhim salohiyatlari hamkori – Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligining Maktabgacha ta'lim va bola parvarishi Departamentida bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Koreya tomoni O'zbekiston delegatsiyasiga Koreyada maktabgacha ta'lim va bola parvarishi bosqichlari, sohani rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish prinsiplari, yangi NURI maktabgacha ta'lim Milliy dasturini joriy qilish jihatlari haqida ma'lumot berdilar. Shuningdek, to'lov tizimlari, ta'lim muassasasi turidan kelib chiqqan holda narxlarni belgilash prinsiplari, Davlatning maktabgacha ta'limga yo'naltirayotgan xarajatlari, shuningdek istiqboldagi rejalar, jumladan, maktabgacha ta'lim strukturasida Davlat bog'chalari ulushini kengaytirish, elektron qabul tizimini joriy qilish, pedagoglar malakasini oshirish hamda sohani takomillashtirish tendensiyalari haqida ham ma'lumotlar berildi.

Koreya Respublikasining tajribasi albatta e'tiborga molik va ishonamizki, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish jarayonlarida bu boradagi Koreya modeli elementlari albatta o'z aksini topadi. Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga

soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta’limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqsadli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo‘llanilayotganligi buning dalilidir. Ta’limga tatbiqan bu tamoyilning roli juda katta, chunki tarmoqning xususiyati ijro intizomi darajasigagina emas, balki moliyaviy intizomga hamda vazirdan tortib o‘qituvchigacha bo‘lgan barcha xodimlarning ichki intizomiga oshirilgan talablar qo‘yilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, intizom xodimlarning tashabbusini bo‘g‘ib qo‘ymasligi va ishga ijodiy munosabatda bo‘lish uchun imkoniyat qoldirishi kerak. Rag‘batlantirish tamoyili, eng avvalo, moddiy va ma’naviy rag‘batlardan foydalanish asosida mehnat faoliyatini motivatsiyalashni ko‘zda tutadi. Moddiy rag‘batlantirish xodimlarning mehnat natijalaridan shaxsiy iqtisodiy manfaatdorligiga, ma’naviy rag‘batlantirish esa asosan xodimlarga psixologik ta’sir ko‘rsatishga tayanadi. Xodimlarning turli ma’naviy ehtiyojlari, ya’ni mansublik, taalluqlilik va muvaffaqiyatga bo‘lgan ehtiyojlari undovchi sabablar bo‘lishi mumkin. Binobarin, rag‘batlantirish tamoyili mazmunini, ko‘pincha amaliyotda bo‘lganidek, faqat ish haqiga bog‘lab qo‘yish noto‘g‘ri. Rag‘batlantirish, shuningdek, ma’naviy rag‘bat va sabablardan foydalanishni, xodimlargaadolatli munosabatda bo‘lishni ham ko‘zda tutadi. Boshqaruvning barcha tamoyillari bir-biri bilan uzviy bog‘langan va biri ikkinchisini taqozo qiladi. Masalan, rejasiz, bilimdon bo‘lmasdani, intizomsiz va ierarxikliksiz tashkilotning aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini ta’minlab bo‘lмаганидек, boshqaruvning boshqa (aniq maqsadga yo‘naltirilganlik, rejallilik, bilimdonlik, rag‘batlantirish, intizom) tamoyillarini inkor etgan holda boshqaruv tizimining aniq faoliyat yuritishiga erishib bo‘lmaydi. Boshqaruvning umumiy tamoyillari bilan birga yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan va faqat ayrim boshqaruv jarayonlarini hamda boshqaruv jihatlarini tartibga soladigan xususiy tamoyillari mavjud. Masalan, ta’lim muassasalarini boshqarishga tatbiqan, odatda, boshqaruv jarayonlarining uzluksizligi ajratib ko‘rsatiladi.

Boshqaruv qonuniyatları va tamoyillari boshqarish funksiyalari bilan uzviy

bog‘liqdir. Ta’limni boshqarish funksiyalari - bu ular boshqaradigan kichik tizim boshqaruv ob’ektiga ta’sir ko‘rsatishida yordam beradigan faoliyat turlaridir. Boshqaruv funksiyalari umumiy va xususiy (maxsus) funksiyalarga bo‘linadi. Umumiy funksiyalar boshqaruvning barcha ijtimoiy tizimlariga xos funksiyalardir. Xususiy funksiyalar muayyan xususiyatga ega. Menejmentga tatbiqan strategik rejallashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, nazorat kabi umumiy funksiyalar ajratib ko‘rsatiladi. Kishilar xatti-harakatida ehtiyojlar va manfaatlar muhim rol o‘ynaydi. Ehtiyoj - bu insonning biron-bir kamchilikni fiziologik va psixologik his qilishi, taqdirlash esa inson o‘zi uchun qadrli deb hisoblagan barcha narsani his qilishi demakdir. Anglab yetilgan ehtiyojlar harakatga undaydi. Odamlarning faoliyati bilan erishiladigan ehtiyojlarning yig‘indisi boshqaruv metodlarining iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik singari motivatsion yo‘nalishlarini belgilab beradi. Boshqaruvning iqtisodiy metodlari moddiy motivatsiyani, ya’ni muayyan ko‘rsatkichlar yoki topshiriqlarni bajarishga va, ular bajarilgach, ish natijalari uchun iqtisodiy taqdirlashga yo‘naltirishni taqozo etadi. Shunday qilib, boshqaruvning iqtisodiy metodlaridan foydalanish ish rejasini shakllantirish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish bilan, shuningdek mehnatni moddiy rag‘batlantirish, ya’ni muayyan miqdor va sifatdagi mehnat uchun taqdirlashni hamda miqdori muvofiq kelmaganligi va tegishli sifatga ega bo‘lmaganligi uchun jazo chorasi qo‘llanilishini ko‘zda tutuvchi ish haqining oqilona tizimi bilan bog‘liqdir. Boshqaruvning tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, huquq-tartibotga, lavozimi bo‘yicha o‘zidan yuqoriqoq bo‘lgan xodimga bo‘ysunishga, ya’ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi. Boshqaruvda bu motivatsiya g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. U davlat darajasida qabul qilingan qonunlar va me’yoriy hujjalarga shubhasiz rioya qilinishinigina emas, boshqaruv xodimlari va ular qo‘l ostidagilarning boshqaruv xodimining ko‘rsatmasi uning qo‘l ostidagilar tomonidan ijro etilishi majburiy qilib qo‘yadigan huquq va majburiyatlar aniq belgilab qo‘yilishini ham taqozo etadi. Boshqaruv xodimining qo‘l ostidagi xodimlarning ushbu munosabatlarga rioya etmasliklari jazo choralari (tanbeh,

hayfsan, ishdan bo‘shatish va h.k.) qo‘llanishiga olib keladi.

G‘arbiy Yevropada oliy ta’lim olish darajasidan masofali ta’lim "ochiq universitetlar" deb ataluvchi shakllarda amalga oshiriladi. Milliy ochiq universitetlar ko‘p jihatdan sirtqi ta’lim tashkiliy prinsiplaridan foydalanadilar. Ochiq ta’lim asosida - o‘qituvchilar o‘zлari oldilarida turgan ta’lim maqsadlariga erishishga intilib to‘la mustaqil yo‘naladigan ta’limmuhitipuxtaishlabchiqilgan.

Ta’limning ochiqligi prinsipi quyidagini anglatadi: oliy o‘quv yurtiga ochiq o‘qishga qabul qilishi ya’ni zarur yoshga yetishdan tashqari (18 yosh) har qanday shart va talablardan voz kechish; o‘qishni ochiq rejalashtirish ya’ni kurslar sistemasidan yo‘li bilan o‘qish individual dasturini tuzish erkinligi; o‘qish vaqt va sur’atlarini erkin tanlash ya’ni butun yil davomida tinglovchilarni oliy o‘quv yurtiga qabul qilish va belgilangan o‘qish muddatlarining yo‘qligi; o‘qish joyini erkin tanlash: o‘quv vaqt asosiy qismida tinglovchilar o‘quv auditoriyalarida jismonan bo‘lmaydilar va qaerda o‘qishni mustaqil tanlayoladilar.

Ochiqlik prinsipini amalga oshirish katta tashkiliy yangiliklarga olib keldi ularni axborotlarni saqlash qayta ishlab chiqish va yetkazish yangi texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga amaliy amalga oshirilishi mumkin bo‘ldi. Misol uchun o‘tgan asr 90-yillarida telekonferensiylar o‘tkazish texnologiyasi asosida masofali ta’lim yangi modeli paydo bo‘ldi. Modelning asosini o‘qituvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro aloqalar asosiy shakli hisoblangan haqiqiy vaqt davomida ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan telekonferensiylar o‘tkazishdan iborat. Shu bilan birga telekonferensiylar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida ham va o‘quvchilarning o‘zлari o‘rtalarida ham o‘tkazilishi mumkin. Bular audio audiografik video-kompyuterli telekonferensiylar bo‘lishi mumkin. Teleta’lim modeli yaqinda paydo bo‘ldi lekin u zamonaviy ta’limda tashkil etishda tubdan o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Mana shu asosida zamonaviy ta’limning yangi tashkiliy shakli - virtual universitetlar rivojlanayotganligida bu yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘qishning bu shaklini biz yangi ta’limning endi paydo bo‘layotgan modeli sifatida qaraymiz. Mazkur

modelida O‘quv maqsadlarida foydalilaniladigan telekonferensiyalar texnologiyasiga ega bo‘lgan ta’lim tizimini qayta qurish mavjud imkoniyatlari amalga oshiriladi. Bu texnologiyalar tinglovchilar guruhlariga va alohida o‘qituvchilarga bir-biridan har qanday masofadan turib o‘quvchilar bilan va o‘zaro uchrashish imkonini beradi. Bunday zamonaviy telekommunikatsiya vositalari bosma matnlar audio va videotasmalar o‘rnini bosuvchi kompyuterli o‘quv dasturlari bilan to‘ldiriladi. Masofali ta’limning bunday modeli paydo bo‘lishi faqatgina masofadan turib emas, balki ta’lim muassasasi qandayligidan qat’iy nazar ta’lim berishni olib borishga olib keladi. Bunday model hali to‘la amalga oshirilgan emas. Bu model katta qiyinchiliklarga duch kelmoqda xususan jamoatchilik tomonidan tan olinishi va ma’lum ilmiy daraja berish diplom va sertifikatlar berish huquqini olish (virtual universitet akkreditatsiyasi) muammolari. Mana shu qiyinchiliklarni yo‘qotish va virtual universitet modelining to‘la rivojlanishi zamonaviy ta’lim tashkiliy tuzilishida chuqr o‘zgarishlarni anglatadi.

XIX- asrning ikkinchi yarmida Fransiya, Belgiya va Germaniyada qiyosiy-pedagogik tadqiqotlar keng miqyosda amalga oshirila boshlagan. Ayrim mamlakatlarda qiyosiy pedagogikaga doir ilmiy asarlar va davriy nashrlar e’lon qilina boshlagan. 1898 yil AQShda qiyosiy pedagogikadan birinchi kurs o‘qilgan (Kolumbiya universitetida). Insonni to‘laqonli hayot va mehnatga tayyorlash uchun XXI- asrda ta’lim qanday bo‘lishi kerak? Hozirgi vaqtda jahon rivojlangan mamlakatlarining deyarli barchasi o‘quvchi o‘quv jarayonida birinchi darajali ahamiyat kasb etishi, uning bilish faoliyati pedagog-tadqiqotchilar diqqat markazida turishi uchun o‘z ta’lim tizimlarini isloh qilish zarurligini anglab yetganlar. Ta’limga nisbatan mazkur yondashuvning muhimligini amerikalik taniqli biznesmen Djon Grillos juda aniq ifodaladi. Uning fikricha, “o‘quvchilar u yoki bu sohada o‘zlashtirayotgan bilimlarning mustahkamlik darjasini uncha muhim emas, chunki bu bilimlar har yili o‘zgaradi va ba’zan o‘quvchilar ularni o‘zlashtirishga ulgurmaslaridan eskiradi. Binobarin, iqtisodiyotga axborot bilan ishlashni mustaqil o‘rganishga, turli sohalardagi o‘z bilim va “Iqtisodiyot va

innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil № 6, 2017 [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz) 3 ko‘nikmalarini mustaqil takomillashtirishga, zarur holda yangi bilimlar va kasblarni o‘zlashtirishga qodir bo‘lgan yoshlar kelishi muhimroqdir”. Hozirgi zamon jamiyatida ta’lim tizimlarini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari quyidagilardir: insonni bilimning turli sohalarida rang-barang mustaqil faoliyatga jalb qilish orqali uning aqliy va ma’naviy kamol topishini ta’minalash. Uzluksiz ta’lim g‘oyasining rivojlanishi insonni, uning shaxsiyati, mayllari va qobiliyatini, ularni har tomonlama rivojlantirishni o‘z diqqat markaziga qo‘yuvchi gumanistik paradigma bilan bog‘liq. Bu g‘oyalar o‘z mazmuni va qimmatini hozirgi jamiyat uchun ham ko‘p jihatdan saqlab qoladi, ammo ularning talqinlari hozirgi hayot voqeligini inobatga olishi lozim. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasining kurtaklariga Platon, Konfutsiy, Suqrot, Aristotel, Seneka va boshqa buyuk mutafakkirlarning asarlarida duch kelish mumkin. Uzluksiz ta’lim g‘oyalari Volter, Gyote va Russoning qarashlaridan ham o‘rin olgan. Bu mutafakkirlar mazkur g‘oyalarni komil insonni voyaga yetkazish bilan bog‘laganlar. Uzluksiz ta’lim haqidagi hozirgi qarashlar asoschisi sifatida Yan Amos Komenskiy e’tirof etilgan. Uning pedagogik merosidan hozirgi vaqtda uzluksiz ta’lim konsepsiyasida ro‘yobga chiqarilgan g‘oyaning o‘zagi o‘rin olgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimi o‘xshash jihatlari, afzallik va kamchiliklari, ularni tashkiliy, huquqiy va metodologik jihatdan takomillashtirishga oid o‘z qarashlarimizni bayon etamiz. Unda tajriba-sinov, qiyosiy tahlil, kuzatish, ilmiytadqiqot, statistik tahlil, ko‘rgazmali, amaliy metodlardan foydalanildi. Tahlil va natijalar Germaniya Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativ yerlar (viloyatlar)dan iborat bo‘lib, har biri shakliga ko‘ra turlicha bo‘lgan ta’lim tizimiga ega. Ta’lim tashkilotlari asosan davlat tasarrufida bo‘lib, ular uchun ta’lim dasturiga tegishli bo‘lgan davlat ko‘rsatmalari mavjud. Ta’limni joriy qilish va boshqarish Federal yerlar (FE) huqumatining konpetensiyasiga kiradi, lekin markaz tomonidan umumiy rahbarlik ham bor: ta’lim vazirligi ta’lim siyosati konsepsiyasini ishlab chiqadi, OO‘Yularini kengaytirishga mablag‘ ajratadi.

Germaniya – ta’lim va kasbga yo‘naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlar davlati. Ko‘plab Nobel mukofoti laureatlari, yuqori darajadagi ilmiy izlanishdagi yutuqlarga ega bo‘lgan, ko‘p loyihalarga moliyaviy yordam berib kelayotgan, har xil davlatlardan kelgan o‘quvchilarni o‘qitadigan davlatdir. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta’limi davlat nazoratida. Mamlakatda o‘n oltita federal yer mavjud bo‘lsa, ularning har biri o‘zining ta’lim to‘g‘risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal yerlarda maktab ta’limida ayrim farqlar bor.

Germaniyada maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog‘chasi xayriya jamg‘armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxona va tashkilotlar ham o‘z bog‘chasiga ega bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tizimi (elementarbereich) 3 yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda bog‘chalarning o‘rni katta. Shu bois ham olmonlar bog‘chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi. Boshlang‘ich maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O‘qish asosan 4 yil, Berlin va Brandenburgda esa 6 yil davom etadi. Dastlabki 2 yil mobaynida o‘quvchilar baholanmaydi. O‘qituvchilar baho o‘rniga bolaning individual rivojlanish holati xususida hisobot tayyorlaydi va o‘zlashtirish tavsifnomasi beriladi. O‘quvchilarga 3-sinfdan baho qo‘yila boshlaydi. Ta’lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo‘lida ustuvor vazifalardan qilib, dunyodagi eng ilg‘or mamlakatlar bilan tajriba almashish, global ta’lim jarayonlarida faol ishtirok etish, hamda o‘qituvchi va talabalar oldida turgan sun’iy to‘sqliarni bartaraf etishni belgilasa bo‘ladi. Ushbu maqsadlarga erishishning samarali yo‘llaridan biri sifatida Boloniya jarayoniga qo‘shilish bo‘lib ko‘rinadi, zero yopiq sharoitlarda ta’limni rivojlantirib bo‘lmasligini ko‘plab mamlakatlarning tajribasidan bilib olish mumkin.

Boloniya jarayoni-Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta'limni uyg'unlashtirish jarayonidir. Bu tushunish oson bo'lgan va o'xshash darajalar (malakalar) tizimini yaratishini, ta'limning kredit tizimiga o'tishini, ta'limning sifatini ta'minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta'lim hamkorligini o'z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta'lim tizimlarini uyg'unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta'limni ta'minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta'lim sifatini takomillashtirish jarayonidir.

### **Boloniya jarayoniga qo'shilish shartlari**

- Yevropa Madaniyat Konvensiyasini ratifikatsiya qilish va oliy ta'lim tizimida Boloniya jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga tayyorgarlik;
- Boloniya jarayonida e'tirof etilgan ilmiy darajalar, shu bilan birga YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan diplomga ilova sistemasini qabul qilish. Diplomlarni tasdiqlash va boshqa mamlakatlarda ularning tengligini e'tirof etish tartibini soddalashtirish uchun Boloniya Deklaratsiyasi "ECTS" kredit birligida ifodalangan o'quv fanlari, amaliy mashg'ulotlar va boshqa turdagি ta'lim to'g'risida asosiy ma'lumotni o'zida aks etuvchi maxsus ingliz tilidagi diplom ilovasini taqdim etilishi;
- Oliy ta'lim sohasida yuqori sifatni ta'minlash, oliy ta'lim sohasidagi malaka va tegishli hujjatlarni o'zaro tan olish, universitetlarning avtonomligini ta'minlash.
- Qiyosiy darajadagi tizim, ya'ni uch bosqichli oliy ta'lim tizimini quyidagi ikki model asosida joriy etish:

Bakalavr + magistr + aspirantura: 3 yil + 2 yil + 3 yil;

Bakalavr + magistr + doktorantura: 4 yil + 1 yil + 3 yil;

– ECTS sistemasi asosida kredit tizimiga o'tish. Kreditlar, shuningdek (*agar ular oliy o'quv yurtlari tomonidan e'tirof etilsa*), oliy ta'limdan tashqari, jumladan, hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) jarayonida ham qo'llanilishi mumkinligi;

– Butun hayot davomida bilim olish (lifelong learning – LLL) uchun shart-sharoitlar yaratilishi;

- Qiyosiy mezon va uslublarni ishlab chiqish maqsadida ta’lim sifatini ta’minlashda Yevropa bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- Oliy ta’limda, ayniqsa, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, institutlararo hamkorlik, mobillik sxemalari, birgalikdagi o‘quv dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar va tadqiqotlar bilan bog‘liq muhim masalalarda Yevropa an’analariga va tizimlariga asoslanish;
- Talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarning erkin harakatini (mobilligini) samarali amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish: talabalarni ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta’minlash; o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma’muriy xodimlar uchun esa natijalarni tan olish va boshqa universitetlarda tadqiqot, o‘qitish va amaliyotga sarflangan vaqtini hisobga olinish imkoniyatini yaratish;

Boloniya deklaratsiyasini imzolash. Boloniya jarayoni asosini Yevropa Ittifoqi davlatlari yaratganiga qaramasdan, bugungi kunda Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lgan davlatlardan ikki barobar ko‘p davlat bu jarayonga qo‘shilgan (48 mamlakat). Boloniya jarayoniga yana Yevropa Ittifoqida bo‘lmagan Shveysariya va Norvegiya, oltita Sharqiy hamkorlik mamlakatlari (*jumladan, Belarus*), Rossiya, Turkiya va Qozog‘iston ham qo‘shilgan.

2010 yilda Budapeshtda Qozog‘istonning Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilishi haqida yakuniy qaror qabul qilingan. Qozog‘iston Yevropa ta’lim tizimining to‘laqonli a’zosi sifatida tan olingan Markaziy Osiyodagi ilk davlat hisoblanadi. Boloniya jarayoniga qo‘shilgandan so‘ng Qozog‘iston oliy ta’lim tizimida quyidagi katta o‘zgarishlar ro‘y berdi:

- Qozog‘iston universitetlari hozirda dunyodagi 650 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari tomonidan imzolangan Buyuk Xartiyaga qo‘sildi va bu mahalliy ta’limni Yevropa standartlariga yaqinlashtirdi. Xartiyani 60 dan ortiq qozoq universitetlari imzoladilar.
- Boloniya deklaratsiyasi tamoyillari asosida bakalavr — magistr — doktorlik dissertatsiyasining uch bosqichli modeliga o‘tish amalga oshirildi.

- Oliy ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayoniga ilg‘or texnologiyalarga asoslangan ta’lim tizimi joriy etildi: barcha oliy ta’lim tashkilotlarida kreditlash texnologiyalari joriy etildi, 38 ta ikkita diplomli ta’lim, 42 ta masofaviy ta’lim yo‘lga qo‘yildi. Dublin o‘quv dasturi deskriptorlariga muvofiq, modulli ta’lim dasturlari, sillabuslar ishlab chiqilyapti, malakalar kvalifikatsiyasining milliy dasturi yaratildi.
- «ECTS» (Evropa Kredit Transfer tizimi) joriy etildi, «ECTS» qoidalarini qabul qilish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma qabul qilindi (bu qo‘llanma 2015 yilning 14-15 may oyida Yevropa mamlakatlarining ta’lim vazirlari konferensiyasida tasdiqlangan).
- Xorijiy o‘qituvchilar va maslahatchilarni taklif qilish davlat buyurtmasi doirasida va universitetlarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan amalga oshirilyapti. 2009 yildan 2014 yilgacha bo‘lgan davrda 6927 nafar xorijiy olim va maslahatchi taklif qilindi.
- Bugungi kunga kelib Qozog‘istonning 19 mingga yaqin fuqarosi dunyoning 35 mamlakatida ta’lim olishyapti va ta’lim, ilm-fan sohasidagi hamkorlik geografiyasi har yili kengayib bormoqda. Chet elda talabalarni o‘qitish quyidagicha amalga oshiriladi: xalqaro ta’lim almashuvi; chet el hukumatlari va xalqaro tashkilotlarning stipendiyalari; Qozog‘iston Respublikasi “Bolashak” xalqaro stipendiyasi yordamida.
- Hozirgi kunda Qozog‘istonning 50 dan ortiq universitetlari Buyuk Britaniya, Irlandiya, Ispaniya, Chexiya, Germaniya, AQSh va boshqa yetakchi davlatlar universitetlari bilan ikki diplom daraja sistemasida ta’lim olib bormoqda.
- Ta’lim sifatini ta’minlash borasida xalqaro hamkorlikni rag‘batlantirish uchun Qozog‘iston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi tomonidan Akkreditatsiya agentliklari milliy reestri tashkil etildi. Bu reestr Qozog‘iston Ta’lim sifatini nazorati bo‘yicha mustaqil agentligi (IQAA) bilan birgalikda 8 ta xorij agentliklarini o‘z ichiga oladi va ular birgalikda qiyosiy mezon va metodologiyani ishlab chiqish uchun hamkorlik qiladilar. 2009 yildan 2015 yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida IQAA 50 ta universitetni va 1100 dan ortiq dasturni institutsional

akkreditatsiyadan o‘tkazdi, bunda dunyoning 25 mamlakatidan 153 xorijiy ekspert, 1100 nafar mahalliy ekspert, shu jumladan, 190 talaba va 200 dan ortiq ish beruvchilar jalb qilindi. Agentlik oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun akkreditatsiya standartlarini Yevropa oliy ta’lim sohasidagi mavjud standartlar va qo‘llanmalar bilan muvofiqlashtirish ustida ishlamoqda.

– Qozog‘istonda Respublika Ta’lim va fan vazirligi qoshida Boloniya jarayoni va akademik mobillik markazi amaliyot olib boradi. Uning asosiy maqsadi oliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadida Qozog‘iston Respublikasida mamlakat va Universitet darajalarida Boloniya jarayonining kelishilgan prinsiplarini to‘g‘ri va to‘liq amalga oshirishga ko‘maklashishdan iborat. Boloniya jarayoni O‘zbekiston ta’lim tizimiga taxdid solishi mumkin yoki umuman foyda olib kelmaydi, degan fikrlar ham mavjud. Bunday taxminlarga bir qator omillar sabab bo‘layotgan bo‘lishi mumkin. Shular qatoriga Boloniya jarayonida ishtirok etish yillar davomida shakllangan ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish talab etilishi, lozim bo‘lgan islohotlarning qimmat va uzoq vaqt talab etishi, akademik almashinuvlar natijasida bilimli insonlarning ketib qolish ehtimoli, milliy an’analarga putur yetish xavfi yuqoriliginini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Qolaversa, **Boloniya jarayoniga qo‘shilish uchun to‘sinqinlik qilayotgan yana bir qancha omillar borki, ularni bartaraf etmay turib, biz bu jarayonga qo‘shilishimiz mushkul.** Bular orasida qisqacha to‘xtalib o‘tish mumkin bo‘lgan omillardan:

- Ayni vaqtida ta’lim standartlarimizning jahon talablari bilan muvofiq emasligi;
- O‘quvchi va o‘qituvchilar malakasi bugungi talablarga javob bermasligi, ya’ni masalan ingliz tilini bilish darajasining pastligi;
- Barcha talabalarimiz ham chet eldagi ko‘chib o‘tish, turar-joy va ovqat xarajatlarini qoplashga qodir emasligi. Universitetlarimiz xorijiy ta’lim tashkilotlarida stajirovka taklif etish imkoniyatiga ega bo‘lishsa-da, ro‘yxatga olish va talabalarni almashish shartlari hammaning ham cho‘ntagiga to‘g‘ri kelavermasligi;

- Xuddi shunday tarzda erkin akademik harakatlanishni ta'minlash uchun Universitetlarda rivojlangan infratuzilmaning (yotoqxona, tibbiy sug'urta va h.k.) va mablag‘ manbalarining (sayohat grantlari va boshqalar) yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- Boloniya jarayoni universitetlarning avtonomiyasini prinsipiiga katta ahamiyat beradi. Avtonomiya — o‘zlarining malakasi bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda universitetlarning mustaqilligidir. Bizda afsuski barcha ta’lim tashkilotlari hali ham davlat qaramog‘ida va oliy ta’lim vazirligi qo‘li ostida faoliyat yuritadilar; Umuman olganda Boloniya jarayonini sinchikovlik bilan tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelsa bo‘ladi:
- Boloniya jarayonida ishtirok etish Universitet bitiruvchilariga mehnat bozorida yangi imkoniyatlar yaratadi;- Talabalar va akademik almashinuvlar tajribasi globallashgan dunyoda O‘zbekiston kadrlarining saviyasi oshadi, rivojlangan davlatlardagi tajribalarni o‘zimizda ham tadbiq etishga imkon beradi;
- Boloniya jarayoni O‘zbekistonga intellektual boylikdan samarali foydalanish uchun ilmiy va sanoat tadqiqot tuzilmalari yo‘nalishidagi innovatsion va izlanuvchan universitetlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi; Boloniya jarayoniga qo‘shilish O‘zbekistonga Yevropa ta’lim tizimidan foydalanish, diplomlar va malakalarning professionalligini e’tirof etish, kredit tizimini (ECTS) va diplom ilovasini joriy etish, ta’lim sifatini baholash, talabalar va fakultetlarning akademik uyg‘unligini amalga oshirish va uzlucksiz ta’limni ta’minlashga imkon beradi;
- Boloniya deklaratsiyasining tavsiyalariga muvofiq, har bir talaba hech bo‘lmasa bir semestrni boshqa bir universitetda, imtiyozli ravishda chet elda o‘tkazishi lozim. Bunday aloqalar va almashuvlarning ahamiyati, ayniqsa, O‘zbekistondagi zamonaviy adabiyotning kamligi va ko‘pincha cheklangan va eskirib qolgan laboratoriya jihozlari sharoitida talabalar uchun kerakli bilimlarni olishga yordam beradi;
- Boloniya jarayonida ishtirok etish respublika uchun ta’lim xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish, olimlar va o‘qituvchilarimiz malakasini oshirishga,

xalqaro ta’lim sohasidagi O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoit yaratishga asos bo‘ladi;

– Diplomlarimizni xalqaro maydonda tan olinishi, kelgusida umumiylar Yevropa ta’lim maydonining bir qismi bo‘lish imkonini beradi;

– Yevropa Ittifoqi bilan tashqi savdo va investitsion aloqalarimiz yo‘lga qo‘yilgan va rivojlanib boryapti. Ushbu aloqalar, birinchi navbatda, oliy ma’lumotli kishilar va mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Agar ikki taraf dunyoqarashlari bir biriga yaqin bo‘lsa, bir-birilarini tanishsa, aloqalarni yanada mustahkamlash osonroq bo‘ladi. Albatta Boloniya jarayoni kamchiliklardan xoli emas. Masalan, uch yillik bakalavriat ichida innovatsiyalarga qodir tadqiqotchi olimni tayyorlash qiyin. Buni anglagan ba’zi MDH mamlakatlarida fanlar sonini kamaytirish o‘rniga, eski darslarni, imtihonlarni qisqa muddatda o‘tkazishga harakat qilishadi. Bu esa talabalar va o‘qituvchilarda haqli e’tirozlarga sabab bo‘ladi. Keyingi muammo Boloniya jarayonida ishtirok etadigan mamlakatlarning hammasi ham yetarlicha yuqori sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsata olmaydi, ko‘plab talabalar cheklangan mobillik haqida shikoyat qiladilar (boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishda, talaba odatda bankdagi hisob raqamlarida ma’lum miqdorda pul borligini ko‘rsatishlari kerak, bu esa ba’zi davlatlarda qimmat – masalan, Norvegiya uchun yiliga 9,5 ming yevro), talabalarning passivligi, yangi qoidalarni talqin qilishda o‘zboshimchalik (bu esa ta’lim sifatini pasayishiga, bakalavriat dasturining tuzilishi bilan bog‘liq muammolarga olib keladi). Shunga qaramay, umumlashgan ta’lim tizimiga qo‘shilishning afzalliklari ko‘proq. Ta’limni ta’minlashda izolyatsiyaga yo‘l qo‘yishdan ochish kerak, bugungi globalizatsiya jarayonlariga qo‘shilish, jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish mamlakatimiz kelajagi uchun juda muhim hisoblanadi. Ta’lim dunyoviy ilmiy-intellektual, badiiy-estetik va ma’naviy-axloqiy madaniyat yutuqlarini o‘zlashtirish jarayonidir va haqiqiy ta’lim milliy-davlat chegaralarini tan olmasdan jahon tajribalariga asoslangan bo‘lishi har qanday davlat kelajagi uchun kuchli omildir.

### **Nazorat savollari:**

1.Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tizimini tahlil qiling?

2.Maktabgacha ta'limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar mazmunini yoriting.

3.Yevropa yagona ta'lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta'lim mazmuni tahlili.

4. Rivojlangan Yevropa davlatlarning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tashkil etish va amalda qo'llash bo'yicha tajribalarini ta'lim tizimiga joriy etish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tuFrisida» PK-2707-son karori. // «Uzbekiston Respublikasi konun xujjalari tuplami», 2017 yil 9 yanvar, 1-son, 11-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tuFrisida» PK-3261-son karori. // «Xalk suzi» gazetasining 2017 yil 11 sentyabrdagi 181 (6875)-soni.

### **3-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MUAMMOLARIGA OID ILMUY TADQIQOTLAR TAHЛИLI**

#### **Reja:**

- 1.Maktabgacha ta'lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili.
- 2.Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid tadqiqotlar.
- 3.Soha ilmiy mакtablari faoliyati. Ilmiy mакtablarda erishilgan yutuqlar.

**Tayanch iboralar:** maktabgacha ta'lim, innovatsion metod, innovatsion texnologiya, ta'limni individuallashtirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tafakkur, ta'lim traektoriyasi, ilmiy kmaktablar, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar, ko'rgazmalilik, tushunarilik, ongli, faollik, ta'limning samaradorligi, ta'limning tushunarligi, fan o'quv-me'yoriy hujjatlar, darsliklar, tizimlilik, faoliyat.

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va yechishdan iborat bo'lib uning asosida didaktik

ziddiyatlar yotadi. Muammoli ta’lim konsepsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat» «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko‘rinishi hisoblanib o‘zida sub’ektning aniq yoki qisman tushunib yetilgan muammoni ifodalaydi uni bartaraf etish yangi bilimlar usullar va harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni taqozo etadi. Agar o‘quvchida qiyinchiliklarni yo‘qotish yo‘llarini izlab topish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar bo‘lmasa shubhasiz muammoli vaziyat yechimini u qabul qilmaydi ya’ni muammoning yechimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi ifodalanishi mavjud bilim va ko‘nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o‘zida namoyon etadi biroq barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo‘li shu bilan birga o‘quv yo‘li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Jahon amaliyotida o‘xhashi bo‘lman mazkur konseptual model tarixiy hamda mamlakatimizning ta’lim sohasidagi tajribasi, shuningdek, rivojlangan demokratik mamlakatlarning ta’lim sohasidagi yutuq va tajribalarini e’tiborga olgan holda loyihalashtirilgan.

Muammoda yechimning qandaydir parametrlari ko‘rsatilsa u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma’lum muammoni demak muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq yuqorida ta’kidlanganidek barcha muammoli vaziyat muammo bo‘la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo‘lsa uni muammoli masalaga aylantiradi, ya’ni uning yechimi uchun o‘zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma’lum ko‘rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, u boshqa ko‘rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo‘yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi. Muammoli ta’limning asosini **muammo** (yun. “to‘siq”, “qiyinchilik”) yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli TT ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko‘p holatlarda

muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

**Muammo** (yunon. “to‘siq”, “qiyinchilik”, arab. “jumboqli”, “sirli”, “tushunilishi qiyin”) – hal qilinishi muhim

Mohiyatiga ko‘ra muammo uni keltirib chiqargan sabablarni o‘rganish, uni hal etishda ahamiyatli, samarali bo‘lgan yo‘l, metod va vositalarni izlash, ularning samarali ekanligini asoslovchi dalillarni to‘plash, dalillarni yangicha, yangi tahlitda izohlash asosida hal qilinadi.

Pedagogika sohasida ko‘p holatlarda “muammo” tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta’limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo‘llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda quyidagi xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi:

- didaktik xarakterdagi muammo;
- amaliy xarakterdagi muammo;
- ilmiy-metodik xarakterdagi muammo;
- sof ilmiy xarakterdagi muammo

Ma’lum bilimlar, noma’lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi.

**Pedagogik muammo** – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala


Ta’lim jarayonida muammoni qo‘yish bir necha sathda kechadi.

Muammoni qo‘yish darajalari

Darajalar	Muammoni qo‘yish mohiyati
1-daraja	O‘qituvchi muammoni qo‘yadi va talabalarni uni hal qilishga yo‘naltiradi
2-daraja	O‘qituvchi muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarning

	o‘zлари mustaqil ravishda muammoni shakllantiradi
3-daraja	O‘qituvchi muammoni qo‘rsatib bermaydi, balki unga talabalarni ro‘para qiladi. Talabalar muammoni anglagan holda uni o‘zлари shakllantirib, muammoni yechish usullarini tahlil qiladi

Ta’lim jarayonida masalani qo‘yishda mavjud shart-sharoitlarni aniqlashda muammo fundamental asos sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirishda muammoning qo‘yilishi va hal etilishi quyidagi bosqichlarda kechadi:



Rejelashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jarayonida ko‘p qo‘llanilsada, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo‘lmaganligi bois ushbu yo‘nalishdagi barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o‘z xususiy ko‘rsatkichlaridan foydalaniлади. Ammo ta’limda bugungi kunda bunday ko‘rsatkichlar yo‘q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi sifatga yo‘naltirishda juda muhim va foydalidir. Vazifaning butun murakkabligini anglagan holda, boshqaruv samaradorligi nima ekanligini aniqlashga urinib ko‘ramiz.

Samaradorlik haqida gapirishdan oldin faoliyat unumdoorligi tushunchasini kiritamiz. O‘ar qanday faoliyat ozmi-ko‘pmi unumli bo‘ladi. Unumdoorlik - bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog‘liq xarajatlar o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir.

Unumdoorlikdan ko‘pincha boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichi sifatida foydalaniлади. Garchi faoliyat unumdoorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog‘liqligi shubhasiz bo‘lsada, biroq ular bitta narsa emas. Ta’limning boshqa ta’lim muassasasiga nisbatan yuqoriроq natijalari ushbu ta’lim muassasasida boshqaruv sifati yuqori bo‘lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish muammosini G.M.Nazirova tadqiq etgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tizimli yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflab, ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvga tayangan holda takomillashtirish modelini nazariy-empirik jihatdan asoslagan. Pedagogik jarayonni takomillashtirish modeli ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlarining rivojlanish sohalari bilan o‘zaro integratsiyalash, refleksiv uzviylikni ta’minlash hamda mustaqil faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish

sohalari bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslangan Play guruqlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

G.M. Nazirova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati – o'yin. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, - deb hulosa qiladi.

G.E.Djanpeisova maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammolarini tadqiq etgan. Muallif o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda arifmetika va geometriyaga oid ilk bilimlarni shakllantirish yo'llari, vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etgan. Bolalarda matematik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish ularning aqliy rivojlanishi, o'zini anglashi, ijtimoiylashuvida muhim omillardan bo'lishini aniqlagan. Bolalarga interaktiv mantiqiy-matematik ta'limni tashkil etishda kompyuterli muhitning ahamiyatini alohida e'tirof etgan. Bolaning vositachi-personajlar orqali kompyuter bilan virtual tashkillashtiriladigan dialogi kompyuterni "jonlantirib", bolaning harakatlarini faol va ongli bo'lishini ta'minlaydi.

G.A.Mardonovaning ilmiy tadqiqot ishi oilada bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi allaning ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ta'siri hamda "alla" so'zining etimologik ma'nosi va tarixiy shakllanishini pedagogik nuqtai nazardan talqin etgan. Bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning falsaffiy, pedagogik va psixologik holatini tahlil etib bolalarning yoshi, psixologik-ma'naviy rivojlanishi bo'yicha ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan alla turlarini didaktik mazmuniga ko'ra tasniflagan. Bundan tashqari, "oila - mahalla - maktabgacha ta'lim tashkiloti"

o'rtasidagi hamkorlik faoliyati asosida bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi takomillashtirilgan bo'lib, bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Maktabgacha ta'lismi tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar ishlaridan misollar keltiring.
2. Maktabgacha ta'lismi tashkilotlari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid tadqiqot ishlarini tahlil qiling.
3. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlardan namunalar keltiring.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

4. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lismenejmenti. –T.: Voris-nashriyot, 2006. -259 b.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiyo'rta ta'lismashkilotlarini boshqarishda menejmentning asosiylarini tushunchalari. –T.: Fan, 2006.
6. Valijonov R. va boshq. Menejment asoslari. –T.: Sharq, 2008.
7. Перегудов Л.В., Сайдов М.Х. Менежмент и экономика высшего образования. Ташкент, Молия, 2001.

## **4-MAVZU: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI UCHUN PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**

### **Reja:**

1. Pedagogika oliy ta'lismashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollari.
2. Maktabgacha ta'lismi pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.

**Tayanch iboralar:** Metodologiya, ta'lismi, ta'lism sifati, modellashtirish, ilmiy bilish, umummetodologik, dialektik, tadqiqot, jarayon, qonuniyat, tamoyil, ijtimoiy tizim.

Ta’lim tizimlarini isloh qilish sabablari va omillari keyingi yillarda chop etilgan ilmiy ishlar turkumida batafsil va asosli tahlil qilingan (R.Ahlidinov, R.Jo‘raev, U.Inoyatov, Sh.Qurbonov, M.Quronov, X.Rashidov, E. Seytxalilov, D.Shodiev, N.Nishonaliev va boshqalar). Bunda ta’lim-kasb-hunar dasturlari mazmunining qayta ko‘rib chiqilishini tavsiflaydigan uch yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin. Birinchi yo‘nalish o‘quv dasturlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq. Bunda maqsad dasturlarni zarur deb hisoblangan yangi elementlar bilan to‘ldirishdan iboratdir.

Aniq fanlar sohasida, xususan, informatika, atrof-muhitni o‘rganish yoki texnologiyalarni rivojlantirish va ularning ta’siri bilan bog‘liq bilimlarni kiritish bugungi kunda shu tariqa zarur deb hisoblanmoqda.

Kamchiliklar, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasida ham aniqlanmoqda. Agar yosh yigit ekologik huquqiy, sotsiologik, psixologik va boshqa fanlarni o‘zlashtirmasa, bu qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi barchaga ayondir. Tarix, adabiyot va til, jamiyatshunoslik, geografiya, ma’naviyat asoslari kabi fanlar vaqtiga qo‘shingan ta’lim mazmuni va metodlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligini taqozo qilmoqda. Ta’lim tizimi javob berishga odatlanmagan masalalar, tarixiy voqealar yoki jamiyatning rivojlanishi natijasida kutilmaganda yuzaga keladi va tez hal etishni talab qiladigan muammolarni vujudga keltiradi.

Insonparvar pedagogikada o‘qituvchi har doim o‘z strategiyasining muallifi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda bunday mualliflik tasodifiy ko‘rinishga ega emas. Bunda kasbiy mahorat ko‘p darajada zaruriyatdan kelib chiqqan holda tanlash ko‘nikmasiga asoslanadi. Bunday ko‘nikmalarni namoyon qilish uchun o‘qituvchi juda katta pedagogik bilim va mahoratga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘qituvchilar pedagogikada mavjud tajribalar ustida ijodiy fikrlashlari, shubhalarga o‘rin qoldirmasliklari, ilg‘or pedagogik qarashlarni o‘zlashtirishlari va o‘z faoliyatlariga tatbiq eta olishlari, kasbiy faoliyatlarini shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlarda o‘quvchilarga ko‘maklashishga qarata

olishlari zarur. Xuddi mana shu tarzda o‘qituvchining o‘quv materiallari va o‘quvchilarga nisbatan shaxsiy munosabati, taktikasi tarkib topadi.

Pedagogik hamkorlik strategiyalari o‘qituvchi pedagogik faoliyatining yuqori darajada istiqbolga yo‘naltirilgan shaklidir. U metodologik xarakterdagi kasbiy ko‘nikmalarda namoyon bo‘ladi. Jumladan: mavjud hodisalarini chuqurroq anglash, uning haqiqiy mohiyatini tushunish, aniq va yashirin sabablarini anglab yetish, nazariya va amaliyot orasida munosabat o‘rnatish, jarayon maqsadini aniqlash, o‘quv-tarbiya vazifalarini muayyan prinsiplarga asoslangan holda oydinlashtirish, pedagogik hamkorlik shartlari va vositalarini tanlash imkonini beradi.

Ta’lim sohasida prognozlash va istiqbolni ko‘zlab rejalashtirish masalalarini eng muhim muammolar qatoriga qo‘sheyotgan taniqli olimlar, pedagoglar va ta’lim tashkilotchilarining aksariyat ishlarida ushbu g‘oya qat’iy ta’kidlab o‘tilmoqda. Ammo vazifa ta’lim sohasidagi prognoz tadqiqotlarning zarurligini anglab etishdan respublikada ta’lim tizimini rivojlantirish uchun amalda aniq ifodalangan ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish imkonini beruvchi tadqiqotlarning o‘ziga o‘tishdan iboratdir. Bunda ta’lim-pedagogik prognoz bilan bog‘liq ishlarda istiqbolda ta’lim iqtisodiyotining prognozli muammolariga, masalan, istiqbolli miqdoriy parametrlar, ya’ni pedagogik kadrlarga, malakali ishchilar va mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashga, turli xildagi ta’lim tashkilotlarining tegishli miqdori va ixtisosini bashorat qilishga, ularni oqilona joylashtirishga, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar mavzusini istiqbolli rejalashtirishga, ta’lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashtirishga katta e’tibor beriladi. Xusan, uzluksiz ta’limning turli darajalardagi maqsadlarini, ta’lim sifatini, uning mazmunini, usullari, o‘quvtarbiyaviy faoliyat vositalari va tashkiliy shakllarini prognozli asoslash bilan bog‘liq pedagogik va didaktik muammolar hamon etarlicha ishlab chiqilmayapti. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishni bashorat qilishning asosiy metodologik va nazariy muammolariga oid mavzular doirasi juda kengdir. Avvalo, pedagogik prognozlashning real ilmiy maqomini hamda bilimlarning ushbu tarmog‘i qamrab oladigan o‘sha fan sohasini aniqlash,

pedagogik prognozlash mumkin bo‘lgan obyektlarni va asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatish zarur. Shundan so‘ng, prognozlash obyektlari va konkret shartsharoitlarning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda, ta’lim sohasida tashxisli tadqiqotlarni tashkil etishga nisbatan yondashuvlarni belgilovchi metodologik tamoyillar tizimini asoslash lozim. Bunda prognozlash tavsifidagi ishonchli axborot olishni va uning to‘g‘riligini ta’minlaydigan muayyan tadqiqot usullarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagogik prognozlash nazariyasi va amaliyotining dastlabki bosqichida O‘zbekistonda uzlucksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid turli prognoz loyihalarni ko‘rib chiqish emas (vaholanki, ularni olish jarayonlari bayon qilinmagan holda bunga urinishlar bo‘lgan), balki shunga o‘xhash loyihalarni isbotlanganlik darajasini oshirish vositalari va usullarini izlash muhim o‘rin tutadi. Shu bois yagona pedagogika fani pedagogik prognozlash doirasida yangi yo‘nalishni, ya’ni barcha bo‘g‘inlarda uzlucksiz ta’limning yaxlit, murakkab va dinamik tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv xususiy prognozli tadqiqotlarni qat’iy ravishda muvofiqlashtirishni, ularni umuman o‘quv-tarbiya tizimiga «ishlayotgan» pirovard natijalarga yo‘naltirishni ko‘zda tutadi. Pedagogika nazariyasi va amaliyotida hal etilmagan masalalar va «tang joylar»ning ko‘pligi aksariyat hollarda yagona pirovard maqsad va umumiylardan tadqiqotchilik tafakkuri bilan birlashmagan ko‘plab mahalliy tadqiqotlarni keltirib chiqaradi. Bunday tadqiqotlar ayrim muvaffaqiyatlarga olib kelishi hamda xususiy masalalarni hal qilish imkonini berishi mumkin. Biroq ularning natijalari, odatda, faqat qat’iy cheklangan hodisalar uchun yaroqlidir va ko‘p jihatdan o‘zgargan sharoitlarda foydalanilmaydi. Shu bois, hozirgi vaqtida tizimli pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishga va bunday tadqiqotlarga nisbatan yalpi, dasturiy-maqsadli yondashuvdan foydalanishga katta e’tibor berilayotganligi bejiz emas. Kadrlar tayyorlash maqsadlari, sifati va mazmuni ta’lim tizimining tarkibiy qismlari qatorida prognozli asoslashni ancha ko‘proq talab qiladi va, shu bilan birga, ularni oldindan prognozlash nisbatan oson kechadi. Ushbu tarkibiy qismlar yuzasidan qilingan prognozni asoslash va ularga muntazam ravishda

tuzatishlar kiritish, asosan, ta’lim usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini tanlashga qay yo‘sinda yondashishga bog‘liqdir. Shu boisdan, kadrlar tayyorlash maqsadlari, sifati va mazmunini didaktik prognozlash pedagogik prognozni rivojlantirishning ushbu bosqichida pedagogik tadqiqotlarning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim sifatini pedagogik prognozlashning metodologik muammolarini tadqiq qilishga kirishgan holda, eng avvalo, pedagogikada ilmiy-prognozlash faoliyati metodologiyasi hal qilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni aniqlash zarur. Ushbu vazifalarni darajasi bo‘yicha ko‘rib chiqish maqbulroqdir. Birinchi - oliv darajada, gap uning maqbul faoliyatining ko‘p omillilagini e’tiborga olgan holda, ta’lim tizimini rivojlantirishni ilmiy jihatdan anglab etish jarayonini metodologik asoslash haqida bormoqda. Bunda ushbu sohada ildamlovchi axborotni olishning falsafiy va gnoseologik muammolari hal etiladi, pedagogik prognozlash strategiyasini oldindan belgilovchi boshlang‘ich metodologik tamoyillar aniqlanadi. Ikkinchi darajada ta’lim sohasida bashoratli tadqiqotlarni o‘tkazishga nisbatan mavjud yondashuvlar metodologiya obyekti hisoblanadi. Metodologyaning vazifasi u yoki bu yondashuvdan foydalanishning to‘g‘riligi va maqsadga muvofiqligini asoslashdan iboratdir. Uchinchidarajada gap pedagogik bashoratlash obyektining u yoki bu tomonlari to‘g‘risida prognozli axborot olishning muayyan prognozli metod va usullari haqida boradi. Vazifa u yoki bu usulning asosiy belgilarini ajratish, muayyan pedagogik muammolarni hal qilishda uni amalda qo‘llanish imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iboratdir. Falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilayotgan ilmiy bilish metodologiyasi, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va har bir muayyan fan metodologiyasi ilmiytadqiqot faoliyatining tamoyillari va usullari to‘g‘risidagi yagona metodologik bilimni tashkil etgani holda, bir-biri bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Obyektivlik tamoyili bashorat bilan bog‘liq faoliyatning umumiylar strategik yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi. Ushbu faoliyat u yoki bu subyektiv fikrni majburan qabul qilishdan hamda pedagogik faoliyatning obyektiv xossalari va munosabatlarini, shuningdek, ta’lim tizimini rivojlantirishning avvaldan mavjud oqimlarini ko‘r-ko‘rona qayd qilishdan xalos

bo‘lgan holdagina muvaffaqiyatli kechadi. Bilish mumkinligi tamoyiliga muvofiq, keljakni bilish jarayonni bilmaslikdan bilishga, kam bilishdan ko‘proq bilishga o‘tish sifatida qarab chiqish kerak. Pedagogika sohasidagi prognoz faoliyati, oqibat-natijada, pedagogik prognozning u yoki bu obyektida xolis, haqiqiy bilim olishga qaratilgandir. Pedagogik hodisalarning ko‘p omilliligi bilan bog‘liq holda masalan, ta’lim sifati ilmiy bashorat tamoyili alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Pedagogikada ilmiy bashorat, rivojlanish tamoyiliga riosa qilingan hollarda, ya’ni pedagogik hodisalarga xos bo‘lgan ziddiyatlar tegishlicha e’tiborga olingan taqdirdagina samarali bo‘lishi mumkin. Ularning ayrimlari o‘quv-tarbiya jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ro‘yobga chiqadi, boshqalari esa unga to‘sinqinlik qiladi. O‘tgan yillar tajribasidan foydalanish - o‘z metodologik asosini tarixiylik tamoyilida topadigan har qanday prognozli ishlanmalar uchun tegishli zamindir. Eski va yangi sifat holatlarning ichki bog‘liqligini aniqlash muhimdir. Nazariya va amaliyot birligi tamoyili ham prognozlashda katta ahamiyatga ega, chunki amaliyot ilmiy-pedagogik prognoz natijalarining to‘g‘riliqi va ishonchliligining yagona obyektiv mezonidir. Pedagogik prognozning umumiyligi metodologik tamoyillarini bilish samaradorligi asosan ularni tashkil etishga yondashuvga bog‘liq bo‘lgan muvaffaqiyatli prognozli tadqiqotlarning zarur, ammo etarli bo‘lmagan shartidir. Zamonaviy boshqaruv nazariyasida tizimli, kompleks yondashuvni amaliyotga joriy qilish va chuqurlashtirish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladigan dasturiy-maqsadli yondashuv ta’limni prognoz tadqiq qilishga eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimi ko‘p shaklli, o‘zaro bog‘langan funksiyalarni amalga oshiruvchi va atrof-muhit bilan muayyan o‘zaro munosabatda bo‘lgan, o‘ziga xos rivojlanish kuchlariga ega murakkab dinamik, o‘zini o‘zi boshqaruvchi, ko‘p darajali yaxlit tizimdir. Bunday murakkab tizimni prognozlashda tadqiq qilinayotgan obyektni kompleks idrok etish farqli xususiyati bo‘lgan prognoz shakllarini qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Ular ta’limni tadqiq qilishda tizimli tahlilning barcha talablaridan foydalanish, elementlar iyerarxiyasini va ularning bir-biriga teng bo‘ysunish sxemasini aniqlash, funksional aloqalarini

ko‘rib chiqish imkonini beradi. Dasturiy-maqsadli rejalashtirish (yoki yondashuv) fundamental fanda ko‘plab keng ko‘lamdagi muammolarni ishlab chiqishda hamda umum davlat ahamiyatiga molik ilmiy-amaliy jarayonlarni amalga oshirishda o‘zini oqladi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturini ishlab chiqishda undan foydalanilganligi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik jarayon juda murakkab bo‘lganligi va qator muhim xususiyatlariga ko‘ra shakllantirishga va o‘lchashga bo‘ysunmasligi bois pedagogika fani va amaliyotida dasturiy-maqsadli rejalashtirishni qo‘llash murakkab lashadi. Odatda, u yoki bu sohada tanazzul vaziyati vujudga kelgan hollarda yirik tadqiqot ishlarini dasturiy-maqsadli rejalashtirishga murojaat qilinadi. Rejalashtirishning bunday metodologiyasi har qanday (ham asosiy, ham ta’milovchi) ishni bajarishdagi izchillikka, parallel ravishda o‘tkaziladigan tadqiqotlarni bajarishning kelishilgan muddatlariga qat’iy talablar qo‘yadi, chunki, ular yaxlit bir butunlikni tayyorlagan holda (masalan, ta’lim sifati va tegishli ta’lim jarayoni, pedagog kadrlar bilan ta’minalash va h. k.) butlovchi qismlar sifatida bir-biri bilan bog‘langan bo‘ladi yoki ulardan biri boshqasini axborot bilan ta’minalaydi.

Vazirlar Mahkamasi 28.12.2017 yildagi [1026](#)-son «Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

Hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazining tuzilmasi;
- oliy ta’lim tashkilotlari huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarining namunaviy tuzilmasi;
- Maktabgacha, umumiyo‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish to‘g‘risidagi nizom;

- Maktabgacha, umumiy o‘rta va mактабдан ташқари та’лим ташкilotлари педагог ходимларини qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi.

Uning asosiy vazifalari:

- mактабгача, умумий о‘рта hamda мактабдан ташқари та’лим ташкilotлари педагог ходимларини qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o‘quv-metodik bazasini shakllantirishni muvofiqlashtirish va tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;
- o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga oлган holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejali va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta’minalash;
- bu sohada ilmiy muammolarga yo‘naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borilishini muvofiqlashtirish;
- hududiy markazlarda dars beradigan professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligini uzlusiz rivojlantirib borish, o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislar, olimlar va o‘qituvchilarni jalb etish ishlarini tashkil etish;
- hududiy markazlar faoliyati natijadorligini muntazam o‘rganib borish va o‘rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish;
- qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha hududiy markazlar rahbarlarining hisobotlari muhokamasini tashkil etish, muhokama natijalari yuzasidan hududiy markazlar rahbarlari faoliyatiga baho berish.

Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi va u to‘g‘risidagi Nizom Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda tasdiqlanadi.

O‘z tizimida mактабгача, умумий о‘рта ва мактабдан ташқари та’лим ташкilotлари bo‘lgan vazirliklar va idoralar har yili 15 noyabrgacha pedagog xodimlarning egallab turgan lavozimiga qarab kurslardan o‘tishi bo‘yicha

belgilangan davriylikni inobatga olgan holda keyingi kalendar yilda malaka oshirish kurslarida o‘qishga yuboriladigan tinglovchilar kontingenitini shakllantiradi va uni Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga taqdim etadi.

Qoraqlpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va poytaxt hokimliklari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligiga hududiy markazlarning moddiy-texnika bazasini xatlovdan o‘tkazish, ularning bino va inshootlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash topshirildi.

*Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida rasman e’lon qilingan va 29.12.2017 yilda kuchga kirdi.*

Mazkur hujjatning to‘liq matni bilan, u bilan bog‘langan boshqa qonun hujjatlariga sharhlar va havolalar bilan yaqin vaqtida «O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi» axborot-qidiruv tizimida tanishish mumkin.

**Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga quyidagilar kiradi:**

- O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va mактаб та’лими vazirligi;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tarkibida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash;
- Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari.

Pedagog xodimlarning malaka toifalarini olishi (o‘zgartirishi) va attestatsiyadan o‘tishi uchun qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kurslaridan o‘tganligi to‘g‘risida hujjatning (diplom, sertifikat) mavjudligi talab etiladi.

## **Malaka oshirish:**

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish) va bilvosita (ta’lim dasturlarisiz o‘qitish) shakllari bo‘yicha tashkil etiladi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

- asosiy ishdan bo‘shagan holda;
- asosiy ishdan qisman bo‘shagan holda (uyg‘unlashtirilgan usul);
- asosiy ishdan bo‘shamagan holda (masofaviy ta’lim).

Asosiy ishdan bo‘shagan holda va asosiy ishdan qisman bo‘shagan holda (uyg‘unlashtirilgan usulda) malakani oshirish hududiy markaz bazasida o‘tkaziladi.

Asosiy ishdan qisman bo‘shagan holda (uyg‘unlashtirilgan usulda) malaka oshirish kursi umumiy davomiyligining 50 yoki 25 foizi — hududiy markazda auditoriya mashg‘ulotlariga ajratiladi. Kursning qolgan qismi amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishini nazarda tutadi. Amaliy mashg‘ulotlarni asosiy ish joyida o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi. Amaliy mashg‘ulotlarning har bir o‘zlashtirilgan moduli bo‘yicha test sinovlari, referat topshirish, amaliyot bo‘yicha hisobot va shu kabilar shaklidagi nazorat nazarda tutiladi.

Asosiy ishdan bo‘shamagan holda o‘qitishning masofaviy ta’lim shakli qo‘llaniladi. Pedagog xodimlarning malakasini oshirish davomiyligi uni tashkil etish shakllariga hamda pedagog xodimning kasbiy malaka darajasini va individual kasbiy ehtiyojini hisobga olgan holda buyurtmachi tomonidan belgilanadigan talablarga bog‘liq holda aniqlanadi. Pedagog xodimlar 5 yilda kamida bir marta malaka oshirishlari shart. Malaka oshirishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakllari uchun auditoriya mashg‘ulotlarining va mustaqil ishlarning eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

## **Qayta tayyorlash:**

Quyidagilar qayta tayyorlashning asosiy turlari hisoblanadi:

- Pedagogik qayta tayyorlash — oliy ma'lumotli nopedagog mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va etarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash;
- Kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) — oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar tomonidan ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va etarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Pedagog xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash yangi o'quv fanlari yoki kurslar joriy etilishi munosabati bilan shartnomaga asosida tashkil etiladi.

Qayta tayyorlash natijasida beriladigan hujjat (diplom) muayyan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borish huquqini beradi.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash dasturlarini o'zlashtirish muddati o'quv rejasiga kiritilgan fanlar soni hamda ularning yuklamalari hajmidan kelib chiqib belgilanadi va u 16 haftadan (576 soatdan) kam bo'lmasligi shart. Auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ishlarning haftalik yuklamasi eng yuqori hajmi haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari 80 daqiqa davom etadi, o'quv mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffus kamida 10 daqiqani tashkil etadi.

**Malaka oshirish va qayta tayyorlashda beriladigan imtiyozlar:**

Malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun o'qishning barcha davrida ularning asosiy ish joyi bo'yicha egallagan lavozimi va o'rtacha ish haqi saqlanadi, ularning o'quv yuklamasi esa boshqa a'zolar o'rtasida taqsimlanadi.

Ishdan ajralgan malaka oshirishga boshqa hududlardan yuborilgan tinglovchilar uchun o'qishga borish va undan qaytish bo'yicha bir martalik yo'll haqi xarajatlari ularni yuborgan tomon hisobidan qoplanadi.

inglovchi quyidagi hollarda tinglovchilar safidan chetlashtirilishi mumkin:

- o‘z xohishiga binoan;
- o‘quv intizomini va hududiy markazning ichki tartib-qoidalarini buzganligi uchun;
- o‘quv mashg‘ulotlarini uzrli sabablarsiz 18 akademik soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- ta’lim dasturlarini o‘zlashtirmaganligi uchun;
- salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma’lumotnomasi asosida);
- sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- vafot etganligi sababli.

Tinglovchi malaka oshirish kursidan chetlatilganda, unga hududiy markaz tomonidan sabablari ko‘rsatilgan holda ma’lumotnomma beriladi, shuningdek, bu haqda uni malaka oshirishga yuborgan buyurtmachiga xabar beriladi.

Malaka oshirish kursidan chetlatilgan yoki yakuniy nazoratdan o‘ta olmagan buyurtma asosida kelgan tinglovchi keyingi o‘quv yilida ish haqi saqlanmagan holda malaka oshirishga yuboriladi.

Malaka oshirish kurslariga qayta yuborilgan pedagog xodim o‘qish yakunlari bo‘yicha yakuniy nazoratdan takroran o‘tmagan yoki asosiy ish joyi bo‘yicha belgilangan muddatda malaka oshirish kurslaridan o‘tmagan taqdirda, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasining amal qilish muddatidan qat’i nazar, mehnat shartnomasi belgilangan tartibda 2 oy mobaynida bekor qilinadi.

Ular kelgusida o‘z pedagogik faoliyatini davom ettirishi uchun hududiy markaz bilan bevosita tuzilgan shartnama asosida o‘z malakalarini oshirgan bo‘lishlari talab qilinadi. Qayta tayyorlash kursi ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish yuzasidan yakuniy nazoratdan qoniqarsiz baho olgan tinglovchilarga kamida 1 oydan so‘ng yakuniy kursni tugatish ishini qayta himoya qilish imkoniyati beriladi.

Hujjatlar:

Qayta tayyorlash va malaka oshirish bo‘yicha ta’lim dasturlari talablarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchilarga quyidagi hujjatlar beriladi:

- malaka oshirish haqida davlat namunasidagi sertifikat — kamida 4 hafta (144 soat) hajmidagi ta’lim dasturlarini o’tagan tinglovchilar uchun;
- qayta tayyorlash haqida davlat namunasidagi diplom — kamida 16 hafta (576 soat) hajmidagi ta’lim dasturlarini o’tagan tinglovchilar uchun;
- yakuniy nazorat natijasida o’qitish dasturini o’zlashtirish yuzasidan qoniqarsiz baho olgan tinglovchilarga o’quv kursini tamomlaganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi.

Qayta tayyorlash haqida davlat namunasidagi diplom va malaka oshirish haqida davlat namunasidagi sertifikat belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

1.Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi mazmuni.

2.Tinglovchi malaka oshirish kursidan chetlatilganda qoncha muddatda qayta o ‘qiydi?

#### **Nazorat savollari:**

1.Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollari mazmuni.

2.Maktabgacha ta’lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirish usullarini yoriting.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PF-5198 «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. 30 sentyabr 2017 y.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №PQ-3651 «Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. 5- aprel 2018 y.

3.Muslimov N.A., Qo‘ysinov O.A.Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. Metodik qo‘llanma. 2006y.

4.Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiyl tahriri ostida. – T.: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010y.

5.Jukova Ye.D. Texnologiya organizasii i realizasii samostoyatelnoy raboty studentov : rabochaya tetr. – Ufa : Izd-vo BGPU, 2004y.

6.Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012y.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

### **1-Amaliy mashg‘ulot: Maktabgacha ta’limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili. (4 soat)**

**Ishdan maqsad:** Tinglovchilarni xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim tajribasi bilan tanishish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Rivojlangan Yevropa davlatlari (Germaniya, Angliya), Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Janubiy Koreya) va Amerika Qo‘shma Shtatlari kabi davlatlarning o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘rganish va tahlil qilish.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

1. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.
2. Yevropa yagona ta’lim muhiti (Bolonya jarayoni)da maktabgacha ta’limi tahlili.
3. Rivojlangan Yevropa davlatlarining ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha tajribalarini o‘rganish.

#### **Mashg‘ulotning borishi**

**1-topshiriq.** Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish. Xorijiy mamlakatlardagi mutaxassislar faoliyati bilan tanishish, kuzatish, o‘rganish va tajriba almashish. Rivojlangan Yevropa davlatlarining ta’lim jarayonini o‘rganish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish.

Mashg‘ulot Rivojlangan Yevropa davlatlarining ta’lim jarayonini o‘rganish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish asosida xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish, mutaxassislar faoliyati bilan tanishish, kuzatish, o‘rganish va tajriba almashish. Xorijiy mamlakatlardagi mavzuga oid ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish orqali o‘zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish.

## **2-topshiriq. Rivojlangan Yevropa davlatlarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish.**

Xorijiy mamlakatlardagi maktabgacha ta’limi tajribalarini o‘rganish asosida o‘zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy sifatlarini rivojlantirish, zamonaviy mashg‘ulot o‘tishning metod va usullari, ishlanmalaridan foydalanish. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, muhokama qilish va baholash. Ko‘rgazmali, namunaviy mashg‘ulotlar va ularga qo‘yilgan talablar asosida tahlil qilish.

Mazkur mashg‘ulotlar talab darajasidagi moddiy-texnika bazaga ega va ilmiy-uslubiy jihatdan tajribali professor-o‘qituvchilar va mutaxassislar faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari, ilmiy-tekshirish institutlari va boshqa muassasalarda hamda maktabgacha ta’lim muassasalarida ko‘chma mashg‘ulot (ochiq mashg‘ulotlar) tarzida o‘tkaziladi. Unda o‘tkazilgan mashg‘ulotni tegishli mezonlar asosida tahlil qilish orqali tarbiyachilarining ilg‘or pedagogik tajribalarini o‘rganish tashkil etiladi. Bu jarayonga ko‘chma mashg‘ulot tashkil qilingan ta’lim muassasasi tarbiyachilarini jalb etish, ularning mashg‘ulotlarini tahlil qilish orqali ularga metodik yordam ko‘rsatish ham ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulot natijasi sifatida ochiq mashg‘ulotni kuzatish va tahlil qilish varag‘i to‘ldiriladi va malaka ishiga ilova qilinadi.

**3-topshiriq: Ob’ektlarning umumiyligi belgilarini topish.** Rivojlangan Yevropa davlatlarining ilg‘or ish tajribalarining bir-biri bilan mutlaqo kam bog‘langan yoki mutlaqo bog‘lanmagan 2 ta ob’ektni oling. Quyidagi jadval asosida ularga taalluqli o‘zaro o‘xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling.

### **Namuna**

<b>Bir-biri bilan mutlaqo kam bog‘langan yoki mutlaqo bog‘lanmagan ob’ektlar</b>	
Pedagogik faoliyat	Ish tajribalari

## **2-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **MAVZU: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI MUAMMOLARIGA OID ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. (4 SOAT)**

**Ishdan maqsad:** Maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilish.

**Masalaning qo‘yilishi:** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid takliflar tayyorlash.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

1. Maktabgacha ta’lim tizimi muammolariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini taxlil qilish.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni yaratishga oid takliflar tayyorlash.
3. Ilmiy maktablarda erishilgan yutuqlarni o‘rganish.

## **3-AMALIY MASHG‘ULOT**

### **MAVZU: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMI UCHUN PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. (4 soat)**

**Ishdan maqsad:** Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollarini tizimlashtirish.

#### **Masalaning qo‘yilishi:**

Zamonaviy yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash. Qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga oid ishlarni o‘rganish.

#### **Ishni bajarish uchun namuna**

- 1.Zamonaviy yondashuvlar asosida maktabgacha ta’lim tizimiga pedagoglarni tayyorlash
- 2.Qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga oid ishlanmalar tayyorlash.

## V. KEYSLAR BANKI

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingliz tilida “case” – to‘plam, chemodan (chamadon), “study” – muammoli vaziyat) – vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish demakdir. Ushbu texnologiya talabalarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

**1.Keys bayoni.** Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o‘lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko‘riladi. Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko‘nikma va malakalarning ob’ektiv, xolis baholanishini ta’minlaydi.

**Keys topshirig‘i.** Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

### **O‘qituvchining yechimi:**

O‘qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarlishini

#### **baholash mezonlari**

<b>Holat</b>	<b>Mezonlar</b>
O‘qituvchilarining pedagogik-psixologik tayyorgarligi	<ol style="list-style-type: none"><li>1. O‘z fani bo‘yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik.</li><li>2. O‘zlashtirgan yoki o‘zi asoslangan yangiliklarni amaliyatga tadbiq etishda qat’iyatlilik ko‘rsatish.</li><li>3. O‘z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo‘llash</li><li>4. pedagogik faoliyatning samaradorligini tashkil etish</li><li>5. O‘qituvchi pedagogik maxoratini namoyon eta olishi</li><li>6. O‘qituvchi o‘quv jarayonini faollashtirishi</li></ol>

**2. Keys bayoni.** Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo‘llanilmoqda. “Vebinar texnologiyalar” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“webinar” – web-based seminar) web-texnologiyalari va

an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma'noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi.

Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtini va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioxha etish talab qilinadi.

**Keys savoli:** ko'pchilikning fikricha vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minotiga bog'liq. Bu fikr qanchalik to'g'ri.

**O'qituvchining javobi:** vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdag'i darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatani tashkil etilishiga bog'liq. Tashkiliy-texnologik masalalar, ya'ni vebinar darsining Internet tarmog'igi orqali talaba, tinglovchilarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifati web-texnologiyalarining ta'minoti bilan bog'liq. Bordi-yu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo'lgani holda kutilgan ta'limiy natija qo'lga kiritilmasa, u holda o'quv mashg'uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo'ladi.

**4-Keys topshirig'i:** Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollari.

**Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'oz'i:**

Asosiy farqlar	
Afzallikkari:	Kamchiliklari:

- |  |  |
|--|--|
| <p>1. Aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish</p> <p>2. O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilish</p> <p>3. Vaqtdan unumli foydalanish</p> <p>4. Barcha muammolarni hal etishi</p> | <p>1. Aniq ilmiy bilimlarga tayanish bo'lishi mumkin</p> <p>2. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchilarining shakllanishi susayadi</p> <p>3. Tassavurlarni o'zgarmasdan qolishi tinglovchilarining mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasining pastligi</p> <p>4. O'qituvchining to'la nazorati barcha tinglovchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi</p> <p>5. Tinglovchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi</p> <p>7. Eslab qolish darjasini hammada teng bo'Imaganligi sababli guruhda o'zlashtirish pastligi.</p> <p>8. Mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammolari va istiqbollari.</p> |
|--|--|

## VI. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>O'zbek tilidagi sharhi</b>	<b>Ingliz tilidagi sharhi</b>
<b>Loyihalash</b>	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the yessence of an activity or process, acivity model by assuming, predicting, planning an yexpected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
<b>“Assesment” texnologiyasi</b> <b>“Assessment technology”</b>	Talabalarining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
<b>Axborotli loyihalar</b> <b>Information projects</b>	O'quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta'limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig'ishga yo'naltirilgan loyihalar	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of yeducational process
<b>Vebinar texnologiya</b> <b>Webinar technology</b>	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta'lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqeя yok hodisalar bo'yicha Internet tarmog'i orqali tashkil etiladigan to'g'ridan to'g'ri uzatiladigan lavha (translyatsiya)lar	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various yevents with the help of Web technologies
<b>Dars ishlansasi</b>	Ta'limiy mazmunga ega loyiha va o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has yeducational yessence
<b>Lesson planning</b>		
<b>Dramatik o'yinlar</b>	Psixologik hamda ijtimoiy masalalarni hal qilishga	Games intended for solving psychologic and social issues
<b>Dramatic games</b>		

	yo‘naltirilgan o‘yinlar	
<b>Didaktik o‘yinlar</b>  <b>Didactic games</b>	O‘rganilayotgan ob’ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarining biliшga bo‘lgan qiziqishlari, faoliyklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied
<b>Ijodiy loyihalar</b>  <b>Creative projects</b>	Individul yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta’lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko‘rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilalar)ni yaratishga yo‘naltirilgan loyihalar	The projects intended to creat new yeducational products (activity report, yexhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and yelectronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
<b>Individual ta’lim</b>  <b>Individual yeducation</b>	Ta’lim jarayonida o‘qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta’lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano‘zaro hamkorligi asosida o‘quv materiallarining o‘zlashtirilishini ta’minalashga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or yeducational means (literature, computer, television, redio, yetc.) during yeducational process
<b>Innovatsion ta’lim</b>  <b>Innovative yeducation</b>	Talabada yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’lim	Education that allows to develop skills and qualities f a student
<b>Innovatsion</b>	Yangi ijtimoiy talablarining	An activity carried out for

<b>faoliyat</b>	an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
<b>Innovatsion Innovation</b>	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system
<b>Interfaol ta'lif Interactive aducation</b>	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lif	The yeducation based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
<b>Ishbilarmonlik o'yinlari</b>  <b>Business games</b>	Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their yeffective and proper organization
<b>"Keys-stadi" texnologiyasi "Case study" technology</b>	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in yearching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
<b>Konsorsium Consortium</b>	Masofaviy ta'limi tashkil etuvchi ikki universitetdan iborat birlashma	A union of two universities that organize a distance learning
<b>Loyiha Project</b>	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the yessence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its yeffectiveness

<b>Loyiha ta'limi</b>	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the yessence of pedagogical activity by guaranteeing the yeffectiveness of a pla and aim that have yeducational characteristics
<b>Mahorat darslari</b>	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilan samarali o'qitish shakli	An yeffective form of teaching organized to spread progressive pedagogical yexperiences
<b>Moderator</b>	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbati va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	A gedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning
<b>Modellashtirish</b>	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish	Developing a model that discloses principal yessence of an yevent, process and system
<b>Model</b>	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
<b>Modernizatsiya</b>	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
<b>Modul</b>	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi	1) units that consists of interrelated yelements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
<b>Modul ta'limi</b>	O'quv jarayonini tashkil	A certain form of

<b>A study of module</b>	etishning muayyan shakli bo‘lib, unga ko‘ra o‘quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma’lum bosqich va qadamlar asosida o‘zlashtiriladi	organization of yeducational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
<b>Muammoli vaziyat Dilemma</b>	Talabalarning ma’lum topshiriqlarni bajarish (masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog‘liq ruhiy holati bo‘lib, u hal etilayotgan masala bilan bog‘liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and yeffective accomplishment
<b>Muammoli ma’ruza</b> <b>A problem lecture</b>	O‘qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo‘naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo‘naltirilgan ma’ruza	A lecture aimed at increasing students’ study activity in solving an issue or dilemma
<b>Muammoli ta’lim</b> <b>Problem yeducation</b>	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
<b>Muammoli ta’lim texnologiyalari</b> <b>Problem yeducation technologies</b>	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyalari	The technologies that develop students’ competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
<b>Muammo</b>	Hal qilinishi muhim	an issue that has practical

<b>Problem</b>	nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan masala	and theoretical significance and needs to be dealt with or solved
<b>Mustaqil ta’lim</b> <b>Independent learning</b>	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o‘quv hamda mutaxassislik fanlari bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o‘zlashtirilishini ta’minalash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’lim	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
<b>Novatsiya</b> <b>Novation</b>	Tizimdagи ayrim elementlarnigina o‘zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system
<b>Pedagogik muammo</b> <b>Pedagogical problem</b>	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
<b>Rivojlanish</b> <b>Development</b>	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual’s physiological and intellectual development
<b>Rivojlantiruvchi ta’lim</b> <b>Developing yeducation</b>	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to‘la ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at revealing and developing students’ inner capacities
<b>Rolli o‘yinlar</b> <b>Role-playing games</b>	Ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini	Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when

	ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar	accomplishing the assignments and obligations
<b>Syujetli o‘yinlar</b>  <b>Plot games</b>	Pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar	Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations
<b>Tadqiqot loyihalari</b>  <b>Projects of research works</b>	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
<b>Ta’lim jarayonini loyihalashtirish</b>  <b>Projecting the yeducational process</b>	O‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejallashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo‘lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyati	A targeted yeducational activity organized in order to develop students’ skills in carrying out independent actions to plan and organize activites and its assessment
<b>Ta’lim innovatsiyalari</b>  <b>Yeducational innovations</b>	Ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to yexisting problems in learning process or yeducational sphere and that guarantee yeffective results
<b>Ta’lim tizimini modernizatsiyalash</b>  <b>Modernization of yeducational system</b>	Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatlari ta’lim olish bo‘lgan talabini qondirish yo‘lida uzlusiz ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minalash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab	Improving or developing an yexisting mechanism in order to provide sustainable development of continuous yeducational system that meets students’ needs and interests as well as society’s social, yeconomic and cultural and country’s skilled personal needs

	chiqilishi yoki takomillashtirilishi	
<b>Uzoqlashtirilgan auditoriyalar</b>  <b>Distant auditoriums</b>	Bir oliy o‘quv yurtida tashkil etilayotgan o‘quv kurslari, ma’ruza va seminarlarning undan uzoq masofada joylashgan ta’lim muassasalarining o‘quv auditoriyalariga telekommunikatsiya vositalari orqali sinxron teleko‘rsatuv, videoanjuman va radio eshittirish ko‘rinishida uzatilishi	A transmission of courses, lectures and seminars to classrooms or lecture halls in remote places organized in universities (colleges) via telecommunication means in the form of synchronous TV or radio programs, video forums
<b>Fasilitator</b>  <b>Facilitator</b>	Masofaviy ta’lim xizmatidan foydalanayotgan guruhlarning faoliyatini natijasini muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi, shuningdek, guruhlar faoliyatini xolis, samarali baholovchi pedagog	A teacher who helps to search for scientific solutions to the problem of the results of activities of groups that use distance learning services, and who develops communication occurring in groups, yeffectively and objectively asseses activity of groups
<b>Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim</b>  <b>Student-centered yeducation</b>	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
<b>Shaxsni rivojlantirish</b>  <b>Developing an individual</b>	Individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarning sodir bo‘lish jarayoni	A process of occurring physical and psychological changes in an individuaul
<b>Edvayzer</b>  <b>Advisor</b>	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi	An advisor who assists in an independent accomplishment of a thesis, course projects by students
<b>O‘yin</b>	Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy	An important type of individual’s activity and a

<b>Game</b>	munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli	form or method of mastering by imitating the relationships by children
<b>O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi)</b>  <b>Game technologies (game learning)</b>	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of yeducation (pedagogical technologies) aimed at creating a process of yemotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social yexperiences by a student
<b>O‘quv loyihasi</b>  <b>Learning project</b>	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (echim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, yeduates, increases knowledge and develops skills, competence
<b>Hamkorlik ta’limi</b>  <b>Cooperation yeducation</b>	O‘quv jarayonida talabalarning jamoada, kichik guruh va juftlikda bilimlarni birgalikda o‘zlashtirishlari, o‘zaro rivojlanishlari, “pedagog-talaba(lar)” munosabatining hamkorlikda tashkil etilishini ifodalovchi ta’lim	Education based on cooperation of a teacher and student, and cooperation of students for mastering learning materials and improving in a team, small groups or in pairs in a learning process

## **VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2023.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi mактабгача та’лим тизимини 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagи “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 343-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2001 yil 16 avgustdagи “343-sonli qororiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi 3-sonli qarori.

### III. Maxsus adabiyotlar:

17. Babayeva D.R. Bolalar nutq o‘stirish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat», 2020y.

18. Babayeva D.R. Bolalar nutq o‘stirish nazariyasi va texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat », 2021y.

19. Babayeva D.R., N.N.Djamilova, D.F.Xalilova. Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2022y.

20. Babayeva D.R., D.F.Xalilova, D.F.Salimova. Bolalarni ijtimoiy moslashuvi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Ilim ziyo zakovat», 2022y.

21. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalananish. -T.: 2012y.

22. Babayeva D.R., Abdullayeva M., G.Jumasheva. Maktabgacha ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari.-T.: “Ilim ziyo zakovat”. 2021y.

23. Babayeva D.R., Najmuddinova G.O. -T.: Дошкольная педагогика. “Ilim ziyo zakovat”. 2021y.

24. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika.-T.: TDPU, 2013y.
25. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.-T.: “Tafakkur bo‘stoni”. 2018y.
26. Ishmuhamedov R., Mirsoliyeva M. Rahbrning innovatsion faoliyati. “Fan va texnologiyalar”. -T.: 2019y.
27. Djuraev R. X. Ta’lim menejmenti. -T.: “Voris”. 2006y.
28. Qurbanov Sh., E.Sayitxalilov. Ta’lim sifatini boshqarish.-T.: ”Turon-Iqbol”, 2006y.
29. Djuraev R. X., Turg‘unov S.T.. Ta’lim menejmenti.-T.:“Voris-nashriyot”, 2006y.
30. Djamilova N.N. “Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” TDPU. 2017y.
31. Najmuddinova G. O. “Роль и значение развития связной речи у детей старшего дошкольного возраста”//Казахстан Республикаси Silkway International University Международная конференция: «Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании» 208-209 стр.
32. Najmuddinova G. O.«Психологические основы развития речи детей дошкольного возраста»Professor Oysha Xasanboyeva “Maktabgacha ta’lim fidoysi va oilashunosi”» Respublika ilmiy amaliy talabalar anjumani 2 mart 2020y.
33. Najmuddinova G. O. Средства и методы развития связной речи детей дошкольного возраста. O‘z. PFITI qoshidagi “Uzluksiz ta’lim” OAK e’tirofidagi ilmiy-uslubiy jurnal.-T.: 2020y. Maxsus son 61-63

#### **IV. Internet saytlari:**

- <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.
- <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari ma’lumotlari milliy bazasi.
- <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
- <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
- <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.